

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

Boltayev Azizbek Shokir o`g`lining

**5610300 – “Turizm (faoliyat yo`nalishlari bo`yicha)”
ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

Ilmiy rahbar:

dots. Abdullayev F.O.

Urganch 2017 yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

“TURIZM” kafedrası

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

Bajaruvchi: Boltayev Azizbek Shokir o`g`li

Rahbar: dots. Abdullayev F.O.

Urganch shahri

2017-yil

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

- 1.1. Turizm tushunchasi va uning mohiyati
- 1.2. Turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari
- 1.3. Turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o‘rni

II-BOB. XORAZM VILOYATI TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING YO‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

- 2.1. Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili
- 2.2. Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o‘rni
- 2.3. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollari

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda vujudga kelayotgan jahon iqtisodiy va siyosiy tizimidagi shiddatli o'zgarishlar ko'pgina iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan va taraqqiy etayotgan davlatlarda mazkur jarayonlarni chuqur tahlil qilib, o'zlari uchun to'g'ri yo'lni tanlab olishlarini taqozo etmoqda. Chunki, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga ta'sir etuvchi har qanday jarayonning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish tanlangan yo'lning nechog'lik to'g'ri yoki aksi ekanligini ko'rsatib beradi.

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotini isloh qilish va milliy taraqqiyot modelini mukammallashtirishga o'zining salmoqli hissasini qo'shuvchi tarmoq sifatida shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, turizmni rivojlantirishning milliy modelining shakllanish xususiyatlari umummilliy, shuningdek, hududiy iqtisodiy taraqqiyotga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonga kelayotgan turistlar yildan-yilga ko'paymoqda. Xususan, 2015 yilda mamlakatimizga 2 million nafardan ko'proq sayyoh tashrif buyurgan. Mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish va sayyohlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda.

Shu boisdan ham, XXI asrning eng serdaromad sohalalaridan biri hisoblangan turizm sanoatining yangi asrda hududiy va jahon miqyosida rivojlanishini tahlil va tadqiq qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, zamonaviy turizm sohasini mamlakat va dunyo miqyosida rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va kerakli xulosalarni chiqarish, uning barqarorligi va kelajagini belgilab beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi yurtimizga katta hajmdagi valyuta tushumlarini kirib kelishi va yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu haqda respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlaydi: "Turizm sodda qilib aytganda, dunyoni tushunish, dunyoni anglash, shu bilan birga, dunyo sahnasiga chiqish

demakdir. Biz ana shu muhim sohani rivojlantirishimiz, uning keng imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak.”¹

Darhaqiqat, turizm sohasi o‘z navbatida sayyohlik sohasining rivojiga bog‘liq bo‘lib, uning taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Chunki, olimlarning ta’kidlashicha, sayohat boshqa xalqlar haqida bilim beradi va masofaviy jihatdan uzoq bo‘lgan davlatlarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, turizm sohasi o‘z navbatida mehmondorchilik sohasi bilan birgalikda mintaqalardagi xizmatlar, yalpi ichki mahsulot va investitsiyalarning tarkibidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Demak, turizm sohasi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi natijasida respublikamizning mintaqalarini rivojlantirishga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi hamda mintaqalarning iqtisodiy salohiyati yaxshilanadi.

Xususan, Xorazm viloyati mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish sohadagi mavjud muammolarni hal qilishni taqozo qiladi, sohani keng taraqqiy qildirishning zamonaviy va yangi turlarini tadbiq qilishni talab qiladi. Bu esa Xorazm viloyat mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish holati, ahvolini tahlil qilish, infratuzilma tarmoqlarining ta’siri va turizmni rivojlantirishning yo‘nalishlari va istiqbollarni o‘rganish bilan bog‘liq. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ham bevosita ana shular bilan belgilanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda turizmni rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish, undagi muammolarni aniqlab berish hamda mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha V.Senin, V.S.Bogolyubov, A.P.Durovich, M.V.Efremova, V.A.Kvartalnov, S.B.Julidov, S.Skobkin va E.N.Il’ina kabi olimlar shug‘ullanishgan hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari va mintaqaviy xususiyatlari yuzasidan respublika olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, G‘.H.Qudratov, A.Eshtayev, O.Xomidov, B.Turayev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, R.Amriddinova, B.Safarov va M.Alimova kabi olimlar izlanishlar olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishi ob’ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishi ob’ekti

¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. - T.: O‘zbekiston, 1996. - 285 b.

Xorazm viloyati turizm sohasi, predmeti qilib Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish xususiyatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- turizm tushunchasi va uning mohiyatini ochib berish;
- turizm turlari va uning asosiy xususiyatlarini ko‘rsatib berish;
- turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o‘rnini ochib berish;
- Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlilini amalga oshirish;
- Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o‘rniga baho berish;
- Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollarini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda keltirilgan materiallardan turizm sohasini yanada rivojlantirish va yanada takomillashtirishda, shuningdek, oliy va o‘rta mahsus o‘quv yurtlarida, “Turizm: nazariya va amaliyot”, “Mintaqaviy turizm”, “Turizm iqtisodiyoti” va “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi marketingi” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va statistik ma‘lumotlar, shuningdek turizm sohasiga bag‘ishlangan manbalar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Ushbu ish kirish, 2 ta bobdan iborat 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning I-bobi “Turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlanib, unda turizm tushunchasi va uning mohiyati, turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari hamda turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o‘rni

ochib berilgan.

Ishning II-bobi “Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishning yo‘nalishlari va xususiyatlari” deb nomlanib, unda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o‘rni hamda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollari ko‘rsatib berilgan.

I-BOB. TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

1.1. Turizm tushunchasi va uning mohiyati

Bugungi kunda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurish va jahon hamjamiyatiga har tomonlama qo‘shilish sari yuz tutmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, respublikada jahonning barcha mamlakatlari bilan har tomonlama xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va kengaytirishga yo‘naltirilgan izchil siyosat olib borilmoqda va o‘tgan qisqa vaqt mobaynida bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi.

Mustaqillikka erishish tufayli bilan O‘zbekiston Respublikasi oldida jahon hamjamiyati bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish va unga qo‘shilish masalasi, xususan turizm sohasida nihoyatda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Ma’lumki, uzoq xorijiy mamlakatlar bilan kommunikatsiyaviy aloqalar o‘rnatish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro turizm tizimining jahon xalqaro turizm tizimiga qo‘shilishi turizm industriyasi sohasidagi ustuvor vazifalardan biridir.

Bu haqda respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zining va jahondagi boshqa mamlakatlarning tajribasidan olingan barcha foydali narsalarni inkor qilmagan holda respublikaning qat’iy pozitsiyasi o‘z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqiy taraqqiyot yo‘lini tanlab olishdan iboratdir”² degan fikri, jumladan xorijiy mamlakatlarning rivojlanish jarayonlari va ularning tajribalaridan foydalanish zarurligini qayd qiladi.

Turizm rivojlanayotgan mamlakatlarda soha sifatida to‘la namoyon bo‘lishi uchun uni har tomonlama o‘rganish va turlicha mazmunini to‘liq ochib berish hamda ta’sir doiralarini tadqiq qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Bu borada aynan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va atrof-muhit bilan bog‘liq omillarni o‘rganish talab etiladi. O‘zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanishini aniqlash bugungi kunda soha oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.³

Bugungi kunda mamlakatimiz tarix va zamonaviylik uyg‘unlashgan qadimiy

² Karimov I.A. Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston, 2004. - 4 b.

³ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil.

shaharlari, noyob madaniy-ma'naviy merosi, xalqimizning milliy o'zligini namoyon etuvchi urf-odat, an'analari va tabiiy salohiyati bilan dunyo sayyohlarining e'tiborini o'ziga tortmoqda.

Yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhiti, o'zbekona mehmondo'stlik, zamonaviy mehmonxonalar va dam olish maskanlari, yuksak sifatli xizmat turlari sayyohlarning mazmunli hordiq chiqarishi uchun qulay imkoniyat yaratmoqda.

“O'zbekiston havo yo'llari” milliy aviakompaniyasi havo kemalari parki va aeroportlar modernizatsiya qilinmoqda va parvozlar geografiyasi kengaymoqda. Poytaxtimizdan Samarqand, Buxoro va Qarshiga qatnovchi yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” poezdi sayyohlarga manzur bo'lmoqda. Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li bunyod etilishi natijasida Toshkentdan Farg'ona vodiysiga zamonaviy poezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi.

Hamda yo'l infratuzilmasini rivojlantirish barobarida xorijlik sayyohlar va xalqimizga bu yo'nalishda xizmat ko'rsatish tizimi ham yildan-yilga rivojlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 1 ming 282 sayyohlik tashkiloti, jumladan, 661 mehmonxona, sayyohlik bazasi va kemping, 600 dan ortiq sayyohlik kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham, turizm sohasini rivojlantirish ko'plab ish o'rinlarini yaratilishi, aholini ish bilan ta'minlash hamda ularning daromadlari oshishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda butun dunyoda iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi bo'lgan turizm sohasiga katta e'tibor berilmoqda.

Chunki, butun jaxon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida turizm tez rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri xisoblanib, ushbu soha mutaxassislar tomonidan “kelajak industriyasi” sifatida e'tirof etilmoqda.

1987 yildan boshlab bugungi kunga qadar ushbu tarmoqning dunyo miqyosida rivojlanish darajasi o'rtacha 14,8 foizni tashkil etdi, vaholanki boshqa tarmoqlarda tegishli davr oralig'ida ushbu ko'rsatkich 8,8 foiz darajasidan oshmadi.⁴

⁴ Лапицкая Л.В., Стрелец Е.В. Маркетинговые исследования тенденций развития регионального туристического рынка. Выпуск 17. Проблемы региональной экономики.

Bugungi kunda turizmning xalqaro turizm tarmog'iga dunyo bo'ylab yaratilayotgan har o'n ikkinchi yangi ish o'rni to'g'ri kelib, keyingi o'n yillikda dunyo miqyosida 120 million kishi yoki ishsiz aholining 3,5 foizi ushbu tarmoqda ish bilan ta'minlanishi taxmin qilinmoqda.

Ma'lumki, so'nggi yillarda xalqaro turizm tarmog'i, iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlari singari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida ostida bo'lib, jahon turizm bozorida talabning ma'lum bir darajada pasayishiga olib keldi.

Ammo, inqirozga qarshi chora-tadbirlar natijasida qisqa muddatdagi pasayishdan so'ng, jahon turizm bozorida o'sish kuzatilmoqda.

Demak, turizm sohasi global iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa sabablar ta'siri ostida vaqti-vaqti bilan vujudga kelayotgan muammolarga qaramay, tez sur'atlar bilan rivojlanish tendensiyasiga ega.

Keyingi yigirma yilda turizmning tez sur'atlar bilan rivojlanishi dunyo bozorida ushbu sohaning xizmatlar eksportidagi rolining oshganligidan dalolat beradi.

Biroq, hozirgi tushunchalarda qabul qilingan turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo'lsada, faqat XX asrga kelib, u jadal sur'atlarda rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida u "XX asr fenomeni" nomini oldi.

Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda turizm juda kuchli jahon miqyosidagi iqtisodiyotning tarmog'i bo'lib, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Hamda bu yirik biznes, katta pul va global miqyosdagi jiddiy siyosat sanaladi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan er yuzining ko'plab aholisi turizm sohasiga jalb qilinmoqda.

Xususan, 1995-1997 yillarda sayohat qiluvchilar sonining barqaror o'sish tendensiyasi yiliga o'rtacha 4 foizga kuzatilib, 2008 yilda ro'y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sababli ushbu sohada faollikning kamayishiga erishilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda turizm ko'pgina mamlakatlarda shiddat bilan rivojlanayotgan industriyaning ijtimoiy-iqtisodiy tarmog'i ham sanaladi.

Butunjahon turizm tashkilotining baholashiga ko'ra, turistik servis rivojlangan shaharga tashrif buyurgan 100 nafar turist 20 ming AQSH dollari atrofida pul sarflaydi, ya'ni har bir turist tomonidan bir sutkada shaharga 200 AQSH dollari miqdorida foyda keladi.

Shuningdek, hozirgi paytda dunyoning ajoyib va jozibador turistik resurslariga ega bo'lgan barcha burchaklari hali yaxshi o'zlashtirilmaganligi va keng turistlar ommasi uchun ochiq emasligini ham hisobga olish lozim.

Bunda tabiiy-iqlim sharoitlari va siyosiy-iqtisodiy omillar, mintaqadagi tinchlik, turizm sanoatining rivojlanishi kabilar muhim rol o'ynaydi.

Turizm infratuzilmasi va industriyasi turizmga turdosh bo'lgan bir necha tarmoqlarni ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, turizmning rivojlanishida yana bir katta muammo bo'lgan ishsizlikni hal qilishga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 nafar turist, 1 ta bevosita turizm sohasi va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi joylarining ochilishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, turizm sohasi mahalliy mintaqalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik mahsulotlari, mahalliy sanoat mahsulotlari va milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotishga yordam beradi. Masalan, Petropavlovskka kruiz laynerining kelishi mahalliy aholi hayotida katta bir yangilik bo'ldi.

Chunki, ushbu faoliyat orqali 50-60 kishi ish bilan ta'minlansa, uch kun mobaynida ular yo'l boshchilik va gidlik vazifasini o'tayotgan mahalliy o'qituvchilar esa o'z oylik maoshlariga teng bo'lgan qo'shimcha daromadni oladilar.

Turizm sohasida "sayohat" va "turizm" tushunchalari bir-biri bilan bog'liq tushuncha bo'lib, ular inson hayot faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi.

Bu dam olish, faol yoki passiv ko'ngil ochish, sport, atrof-muhitni anglash, savdo, fan, davolanish va boshqa ko'plab jihatlarni qamrab oladi.

Ularni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlar turizm so'zining kelib chiqishini yaxshi anglab olishga zamin yaratadi (1.1.1-jadval).

Turizmni sayyohatdan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlar⁵

| № | Farq qiluvchi xususiyatlari | Turizm | Sayohat |
|----------|--|---|---|
| 1 | Mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri | Turizm kuchli jahon miqyosidagi iqtisodiyot tarmog'i bo'lib, uning jaxon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi mavjud | Sayohatlarning iqtisodiyotiga bevosita ta'siri yo'q |
| 2 | Qo'yilgan maqsadlar bo'yicha | Yo'llanmada ko'rsatilgan aniq qo'yilgan maqsadlar bilan chegaralangan | Aniq qo'yilgan maqsadlar bilan chegaralanmagan |
| 3 | Muddat maboynida | Yo'llanma bilan chegaralangan | Muddati chegaralanmagan |
| 4 | Ma'lum makonda bo'lishi | Bo'ladigan joyi yo'llanma bilan chegaralangan | Makoni yoki bo'ladigan joyi chegaralanmagan |
| 5 | Bo'sh vaqtning mavjudligi | Asosan bo'sh vaqt maboynida amalga oshiriladi | Bo'sh vaqt bo'lishi shart emas |
| 6 | Borgan joyida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishi | Borgan joyida turist uchun haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas | Borgan joyida sayohatchi uchun haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish mumkin |
| 7 | Mablag' bilan ta'minlash | Turistning shaxsiy mablag'i va ijtimoiy fondlardan | Homiy tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi |
| 8 | Tashkil qilish va xizmat ko'rsatish | Bu faoliyat turli xil turistik korxonalar va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi | Tashkil qilish homiy tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan amalga oshiriladi, sayohlarga xizmat ko'rsatish esa bevosita o'zi tomonidan amalga oshiriladi |
| 9 | Yashash faoliyatiga ta'siri | Turistning sayohatga borib kelishi yashash faoliyatiga bevosita ta'sir qilmaydi | Sayyohat sayohatchi uchun kasbi yoki kun ko'rish manbai, turmush tarzi bo'lib xizmat qiladi |

Shular bilan birga, turizm sohasi o'z navbatida sayyohlik sohasining rivojiga

⁵ Manba: Tuxliyev I., Qudratov G'., Pardayev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.

bog‘liq bo‘lib, uning taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Chunki, olimlarning ta’kidlashicha, sayohat boshqa xalqlar haqida bilim beradi va masofaviy jihatdan uzoq bo‘lgan davlatlarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi.⁶

Darhaqiqat, turizm sohasi o‘z navbatida mehmondorchilik sohasi bilan birgalikda jahondagi xizmatlar, yalpi ichki mahsulot va investitsiyalarning tarkibidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasining tez sur‘atlar bilan o‘sishi yurtimizga katta hajmdagi valyuta tushumlarini kirib kelishiga va yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Ushbu turizm va mehmondorchilik sanoatiga jahon xizmatlari eksportining 1/3 qismi, jahon yalpi milliy mahsulotining 10 foizi, investitsiyalarning 7 foizi hamda 18 ish o‘rnining bittasi to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, turizm sohasi mamlakatda ish bilan bandlikni ham ta’minlovchi sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro kuzatishlar natijalaridan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, turizm industriyasida tashkil etilgan har bir ish joyiga qo‘shimcha ravishda boshqa tarmoqlarda ham 5 tadan 9 tagacha qo‘shimcha ish joylari yuzaga kelar ekan. Turizm bevosita va bilvosita 32 ta iqtisodiy tarmoqning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Turizm tez rivojlanib borayotgan tarmoq bo‘lganligi sababli investorlarga yuqori daromad olish imkonini beradi. Demak, sarmoyalar qaytimi ham nisbati tezroq amalga oshadi. Bu esa o‘z navbatida turizmni sarmoyadorlarni o‘ziga jalb etish qobiliyatini oshiradi hamda sarmoyalarning ko‘paytirishga olib keladi.

Shuning bilan birgalikda, turizm tufayli turistik sayohatlar tashkil etiladi va amalga oshiriladi turli muddatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan, maqsadlariga ko‘ra turistik amalga oshiriladigan sayohatlar muddati bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1-2 kunlik;
- 3-7 kunlik;
- 8-28 kunlik;

⁶ Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q., Ataboyev R. O‘zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. // Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 61-70 b.

- 29-91 kunlik.

Avvalo, turizm iqtisodiyotning maxsus sohasi va inson faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi.⁷ Shu sababli ham, turizm sohasida iqtisodiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari o'zining mahsus qirralarida namoyon bo'ladi. Umumiy qonuniyatlar o'zini xususiyligi orqali namoyon qilsa, xususiylik esa mazkur turistik tashkilotning aniq faoliyati orqali aks ettiriladi.

Turizm inson hayoti va faoliyatining ko'p sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun ham, turizmni o'rganish psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, geografiya, informatika va huquq sohalarini o'rganish bilan uzviy ravishda bog'liq. Chunki, turistik resurslar er sharining deyarli barcha burchaklari, qit'alari va mamlakatlarida mavjud bo'ladi. Turizm yo'nalishi va turini erkin tanlash sharoitida turizm tashkilotchilari turistik oqimlarni bilishi, istiqbollashi va xatto ularni boshqarishi kerak.

Shu bilan birga, bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi dolzarb muammolarning echimini ishlab chiqish lozim:

- turizm boshqaruv organlari tarkibini soha bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash;
- turistik resurslarni xalqaro va ichki turizm darajalariga ajratish va ularni mukammal o'rganib ma'lumotlar bazasini yaratish;
- hali o'rganilmagan resurslarimiz ko'pligi nuqtai nazardan ularni o'rganib, tavsiflarini yaratib tegishli turistik marshrutlarni ishlab chiqish;
- turizmi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, ularning o'zimizda qo'llash mumkin bo'lgan yo'nalishlarini olib amaliyotga joriy etish;
- soha bo'yicha kadrlar bilim va malakalarini oshirish maqsadida xalqaro tajribalar almashinishni yo'lga qo'yish;
- turizmni rivojlantirish chora-tadbirlar datsurlarini ishlab chiqishni jadallashtirish va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha doimiy monitoring olib borish;
- turizm organlarining mutaxassis kadrlar etkazib beruvchi o'quv yurtlari bilan

⁷ Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S.. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2010. - 17 b.


aloqalarini kuchaytirish;

- xalqaro darajadagi reklama mahsulotlarini ishlab chiqish va turizm bozoriga chiqarish va boshqalar.

Umuman olganda, turizm tushunchasi va uning mohiyatini ushbu sohaning keng taraqqiy qilishidagi bosqichlar va omillar aks ettiradi hamda yildan yilga rivojlanib boradi.

1.2. Turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari

Ma'lumki, turizmga qit'alar va mamlakatlarning iqtisodiy munosabatlarini belgilovchi daraja bo'lib qaralishi lozim. Xalqaro turizm aloqalari qanchalik doimiylikka ega bo'lib borgan sari jahon iqtisodiyotini oldindan aytib berish, to'g'ri bashorat qilish shunchalik oson bo'ladi, dunyo kon'yukturasi barqarorlashadi va mustahkamlanadi. Shundan kelib chiqib, xalqaro statistikada turizm quyidagi tiplarga bo'linadi (1.2.1-rasm):



1.2.1-rasm. Xalqaro statistikada turizmning tiplari⁸

Ushbu rasmga muvofiq, turizmdagi ushbu tiplar har xil holatda biri-biri bilan qo'shilib, turizmning quyidagi kategoriyalarini hosil qiladi:

- mamlakat doirasidagi turizm ichki turizm va kiruvchi turizmni o'z tarkibiga oladi;

- milliy turizm ichki turizm va chiquvchi turizmni o'z tarkibiga oladi;

- xalqaro turizm, kiruvchi turizm va chiquvchi turizmni o'z tarkibiga oladi.

Avvalo, zamonaviy turizmni o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish lozim. Jumladan, geografik belgilari, turistik oqim yo'nalishi, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash

⁸ Professorlar M.Q.Pardayev va H.N.Musayevlar tahriri ostida. Mualliflar jamoasi. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalari rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. - T., 2008. - 47 b.

maqsadga muvofiq.⁹

- ichki turizm - o'z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyuruvchi joyda turistik maqsadlarda sayohat qilishidir. Ichki turizm davlat chegaralarini kesib o'tish bilan va turistik rasmiyatchilik bilan bog'liq emas. Bunda milliy valyuta va til, hujjatlar oldingidek o'zgarmasdan qoladi. Dunyodagi safarlarning 80-90 foizi ichki turizm ulushiga to'g'ri keladi. Unga ketayotgan xarajatlar xalqaro turizm xarajatlaridan 5-10 barobar ortiq va AQSHda ommabop hisoblanadi.

- xalqaro turizm - vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish tushuniladi. 1968 yilda Rimda sayohatlar va turizm bo'yicha BMTning birinchi konferensiyasida xalqaro turizmga quyidagi ta'rif berildi. Chet el turisti - vaqtinchalik tashrif buyuruvchi, ya'ni istalgan shaxs, tashrif buyurayotgan davlatida malakaviy faoliyati to'lanmaydigan istalgan maqsadlarda doimiy yashayotgan davlatidan tashqariga boshqa davlatga tashrif buyurishidir.

Turistlarni nisbatan ko'proq qabul qiluvchi davlatlarda xalqaro turizmni rivojlantirish, chet el valyutasi oqimini ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bilan izohlanadi. Ko'pgina davlatlar xalqaro turizm vositasi orqali to'lov balansi muammolarini hal qilishga urinadilar.

- kiruvchi turizm - faoliyati to'lanmaydigan turistik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o'zga mamlakat hududiga tashrifi va sayohati hisoblanadi.

- chiquvchi turizm – bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to'lanmaydigan sayohati va tashrifi hisoblanadi.

Biron-bir mamlakatga nisbatan turizmning quyidagi shakllarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:¹⁰

⁹ Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O'quv-uslubiy majmua. – Samarqand: SamISI, 2013 yil. - 372 b.

¹⁰ Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год. Методологические исследования Серия М № 83/ Rev.1. Организация Объединенных Наций. Мадрид и Нью-Йорк, 2010 год. – 18 с.

- ichki turizm. Bunga mamlakat hududida doimiy ravishda yashovchi tashrif buyuruvchining ichki turistik safari yoki chiquvchi turistik safari doirasidagi faoliyati kiritiladi.

- kiruvchi turizm. Bunga mamlakat hududida yashamaydigan tashrif buyuruvchining kirish safari davomida ushbu mamlakat doirasidagi faoliyati kiritiladi.

- chiquvchi turizm. Bunga mamlakat hududida yashovchi tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat chegaralaridan tashqaridagi faoliyati kiritiladi.

Yuqorida tavsiflab berilgan turizmning uchta shakli o‘zaro kombinatsiyalashgan holda turizmning ichki va kiruvchi turizmni qamrab olgan mamlakat doirasidagi turizm, ichki va chiquvchi turizmni qamrab olgan milliy turizm hamda kiruvchi va chiquvchi turizmni qamrab olgan xalqaro turizm kabi yangi shakllarini tashkil etadi.

- rekreatsion turizm - dam olish maqsadidagi turist bo‘lib, qator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo‘lib hisoblanadi. Ispaniya, Italiya, Fransiya va Avstriyaga chet el turistlarini tashrifi mana shu maqsadni ko‘zda tutadi. Rekreatsion turizm sayohatni davomiyligi bilan marshrutga kiruvchi shaharlarni soni ko‘p bo‘lmaganligi, havo transportidan keng foydalangan holda charter havo reyslari bilan ajralib turadi.

Biroq, dam olish maqsadida safarlar turli xilma-xilligi bilan farqlanadi va qiziqarli tamosha dasturlarini qiziqishlar bo‘yicha mashg‘ulotlar tashrif buyurgan mamlakatni milliy madaniyatini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan etnik sayohatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

- sog‘lomlashtiruvchi dam olish turizmi o‘ta shaxsiy individual harakter kasb etadi. Ammo, ko‘pgina holatlarda kira haqiga chegirmalar olish maqsadida hamkorlik uchun turistlar birlashadilar. Turizmni boshqa turlariga nisbatan davolanish uchun turlar odatdagi muddatlardan ko‘proq bo‘lib 24-28 kunni tashkil etadi. Inson organizmiga ta’sir etish vositasiga qarab davolanish uchun dam olish iqlimli, dengiz va balchiq bilan davolanish kabilarga bo‘linadi.

- tanishuv yoki ekskursion turizm turi o‘z ichiga tanishuv maqsadlari bilan bog‘liq tashrif va sayohatlarni o‘z ichiga oladi. Ekskursiya bilishning bir shakli bo‘lib, shaxs intellekti va dunyoqarashini kengaytirish funksiyasini bajaradi.

Tanishuv sayohatining turli ko‘rinishlaridan biri bu avtomobil turizmi hisoblanadi, boshqa transport vositalariga qaraganda avtomashina va avtobuslarda sayohat qilish turistlarga anchagina kengroq tanishish imkoniyatlarini yaratadi.

- malakaviy ish turizmi turiga ish maqsadlari bilan safarlar kiradi. Hozirgi zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatda hayot xalqaro aloqalarni bog‘lash zaruriyatini chiqarmoqda. So‘nggi yillarda ishchan soha vakillarining, tadbirkorlarning tashriflari ommaviy tus olmoqda. Bir qator turistlik firmalar turli maqsadlarda biznesmenlarni guruh bo‘lib tashriflarini tashkil etishga ixtisoslashtirilmoqda.

Ishchanlik turizmini kattagina afzalligi shundaki, uni yuqori mavsum bo‘lmagan paytda ham tashkil etish imkoniyatini beradi. Bunda turfirmalar nafaqat sof turistlik xizmatlar – transport, joylashuv, ovqatlanish, sayohat xizmati bilan chegaralanmasdan, balki o‘ziga xos maxsus xizmatlar – savdo sheriklarining imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish, tarjima, zarur bo‘lgan iqtisodiy ma’lumotlarni taqdim etish, ishchanlik uchrashuvlarini tashkil etishni amalga oshiradi. Buning uchun tashrif buyuruvchilarga tegishli yig‘ilishlar o‘tkazishda zallar va maxsus vositalarga mavjud bo‘lgan kongress-markazlar tashkil etiladi.

Turizmni mazkur turining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ishchanlik vaziyatida o‘tadigan uchrashuv ishtirokchilari oddiy turistga qaraganda mamlakat bo‘lib sayohat paytida ko‘proq mablag‘ sarflaydi. Shuning uchun ham, ko‘pgina davlatlar xalqaro forumlarni va shunga o‘xshash tadbirlarni o‘zlarida o‘tkazishga harakat qiladilar.

- ilmiy turizmga o‘qish, ta’lim olish va malaka oshirish maqsadida safar qilish kiradi. Xorijda ta’lim olish uchun safar qilish O‘zbekistonda ham turistik biznesining o‘rnatilgan segmentlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Safarlarning ommabop bo‘lib borayotgan turi bu til o‘rganish maqsadida, ayniqsa Buyuk Britaniya va boshqa ingliz tilida so‘zlashadigan davlatlarga safarlar kengayib bormoqda.

- sport turizmining asosiy maqsadi turistlarga o‘zlari tanlagan sport turi bilan shug‘ullanishga imkoniyat yaratib berishdan iborat. Sport turizmi zaruriy baza, ya’ni turli inventarlar, maxsus trassalar, yo‘llar, sport maydonchalari va asbob-uskunalarini talab etadi. Sport sayohatlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri bu dam

oluvchilarni xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport sayohatlari va safarlarning maqsadiga bog'liq ravishda aktiv va passiv turlarga bo'linadi. Birinchi holatda bu qandaydir sport turi bilan shug'ullanish hisoblansa, ikkinchi holatda faqat ishtirok etish hisoblanadi.

- shop-turlar Rossiya va MDH davlatlari uchun xos bo'lib, bunda xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo'lib, olib yana qayta sotish uchun halq iste'moli tovarlarini harid qilish hisoblanadi. Bu turdagi biznes "Mokilar" mazkur davlatlarni byudjetiga sezilarli daromadlarni olib kelmoqda. Masalan, Turkiyada "Mokilar" har yili 8-10 mlrd. AQSH dollari miqdorda mahsulotlarni xarid qiladilar. Mamlakat hukumati har tomonlama shop-turizmni qo'llab-quvvatlamogda. Turkiyaning turizm bo'yicha vazir maslahatchisi ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilishicha, sifatsiz tovarni sotib olgan turistlar 15 kun muddat ichida uni almashtirilishi, to'langan summani qaytarish yoxud kamchiliklarini bepul bartaraf etishini talab qilishlari mumkin.

- sarguzashtli turizm – o'ziga xos tarzda dam olishni bir turi bo'lib, turistlarni nafaqatgina ular uchun jalb qiluvchi joylar bilan ta'minlash, balki g'alati, g'ayritabiiy faoliyat turi bilan shug'ullanishga jalb qiladi. Sarguzashtli turizm safar ekspeditsiyalari, safari–turlar va dengiz sayohatlari kabi turlarga bo'linadi.

Sarguzashtli turlar mavzusi va geografiyasi juda keng va turli tumandir. Odatda bu guruhli turlar hisoblanadi. Bunday turizmning o'ziga xos jihati shundaki ov qilish va baliq ovlash uchun tegishli ruxsat beruvchi turli litsenziyalarni olish hisoblanadi. Sarguzashtli turizm ma'lum xavf-xatar bilan bog'liq. Shu sababli ham, bunday turlarni xavfsizligini ta'minlash uchun yuqori malakali va tajribali instruktorlar zarur bo'ladi. Turizmning mazkur turi juda yuqori narx bilan belgilanadi va uni elitar dam olish turkumiga kiritish mumkin.

- diniy turizm hozirgi vaqtda juda yuqori talabga ega bo'lib, ommaviy tus olmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan har yili yuzlab vatandoshlarimiz Makkayu Madinaga haj va Umra safarlarini amalga oshirmoqdalar.

Ayniqsa, turizmga diniy maqsadlar haj ziyorati, tanishuv tashrifi hamda ilmiy tashriflarga bo'linadi. Turizm mazkur turining jiddiy muammosi bo'lib, bu sohada

yuqori malakali kadrlarning yoʻqligi hisoblanadi. Bunda ular nafaqat tarixiy va arxitektura yodgorliklarini koʻrsatish, balki chuqur maʼnaviy va diniy bilimlar bilan tanish boʻlishi zarur.

- sogʻinsh yoki qoʻmsash turizmi turi qarindoshlar, tugʻilgan joylar va yaqinlarinikiga tashrif qilish ehtiyojiga asoslangan va xalqaro turistik almashuvda muhim oʻrinni egallaydi. Qoʻmsash turizmga yaqqol misol boʻlib, Oʻzbekistonda ilgari yashagan va hozirgi paytda ham ularning qarindosh urugʻlari respublikamizning turli shaharlarida faoliyat koʻrsatib kelayotgan qrim-tatar, zakavkaz xalqlari, yaxudiyalar, nemislar va boshqa millatga mansub boʻlgan aholini koʻrsatishimiz mumkin.

- ekoturizmga bugungi kunda talab yuqori boʻlib, bu dunyoning barcha davlatlariga tegishli va faol dam olishning bir turidir. Unga koʻra, inson oʻz sogʻligini tiklashi bilan birga, bir qancha estetik hissiyotlar oladi. Hozirgi kunda ekologik turizm eng rivojlangan dam olish turi boʻlib, bu sport turi ham hisoblanib, turizmning eng rivojlangan sohasiga aylanmokda.

Ekoturizmning maqsadi hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini taʼminlash uchun tabiatdan turistik yoʻnalishda oqilona foydalanishdan iborat boʻladi.

- ekzotika yoki gʻalati, ajib turizmi oʻzining ajibligi bilan ajralib turadi. Jumladan, “Manos travel” nomli grek turfirmasi Oyga sayohatni rejalashtiradi. Rossiya kosmodromidan xorijiy biznesmenlarni kosmosga qiladigan sayohatlari, bu albatda turistlar tomonidan juda katta xarajatlar qilishni taqozo etadi. Bunda ushbu turistlar muvozanatsiz holatiga tushadi va kosmosni koʻrish sharafiga muyassar boʻladi. Parvozga yoziluvchilar hozirdan boshlangan, birinchi turistlar 5 ming dollardan kafolat summasini oʻtkazib joylarni bron qildilar.

Hamda, “Apsara” fransuz firmasi Antarktida va Arktikadagi muzliklarga sayohatlarni tashkil etdi. Antarktidaga birinchi kruiz 1989 yilda tashkil etilgan. Sayohat oʻz tarkibiga mazkur ekzotik joylarda nafaqatgina yashashni balki, u erda turistlar mahalliy aholi, tyulenlar, morjlar va pingvinlar hayotini kuzatish imkoniyatiga ega boʻladilar.

- ijtimoiy turizm davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo'lgan kishilarni dam olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

- tashkil etilgan turizm turi tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan alohida shaxslarni yoki bir guruh turistlarning sayohatidir. Tashkil etilgan turistlar, turistlar yo'llanmasini harid qilish yo'li bilan sayohat qilish huquqini qo'lga kiritadilar. Bunda xizmatlar miqdori turlicha bo'ladi. Masalan, turistlar ovqatlanishi xizmatlar kompleksi, ya'ni transport xizmatlari, ovqatlanish, yashash, transfer va sayohat xizmatlarini xarid qilib olishlari mumkin. Tashkil etish shakli bo'yicha teskari turizmni turini tashkil etilmagan yoki faol va tashabbuskor shakli deyiladi.

Demak, turizm sohasining tavsifiga asosan, ispan mutaxassisi Montexano tadqiqotlariga muvofiq fransuzlar madaniyatiga yaqin bo'lgan davlatlarga oilaviy sayohatni yoqtiradi, quyosh nurida dam olishni xush ko'radi hamda uzoq sayohatlardan qochishga harakat qiladilar. Italiya turistlari esa faol va tashabbuskor turizmni afzal ko'radilar, tabiat qo'ynida dam olish va notanish insonlar bilan tanishishga harakat qiladilar.

Hamda inglizlar uchun sayohatlarni tanlashda asosiy mezon bo'lib, iqlim, oshxona, rekreatsiya imkoniyatlari hisoblanadi. Bunda ham tashkil etilgan, faol va tashabbuskor sayohat turlardan foydalanishi mumkin. Germaniya turistlari kempinglar, oilaviy pansionatlarda tashkillashtirilgan dam olishni ma'qul ko'rishadi. Ular uchun sayohat qilingan joydagi ekologik vaziyat muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan turizm turlari ushbu turizm sohasining asosiy xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi. SHu orqali turizm sohasining rivojlanishi va taraqqiyotiga baho berish imkoniyati yaratiladi.

1.3. Turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o'rni

Turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlar faol qatnashadi hamda ular turli vazifalarni bajaradi. Jumladan, hududdagi turistlarga xizmat ko'rsatish quyidagi tashkilotlar orasida taqsimlanadi va bajariladi:

- hokimiyat;

- mehmonxona majmualari va ovqatlanishni tashkil qiluvchi vakillar;
- turoperatorlar va vositachilar;
- transport tashkilotlari.

Avvalo, turizm tashkilotlari turizm siyosatini shakllantiradi, ya'ni ular turizm uchun foydali asos bo'luvchi shu soha chegaraviy shartlarini yaratish va qo'l-ostidagi hududlar rivojlanishini rag'barlantirishi kerak. Turizm tashkilotlari xususiy yoki davlat birlashmalari shaklida bo'ladi. Ular o'z faoliyatlarini milliy, viloyat va shahar darajasida ishlab olib boradilar.

Shuningdek, mas'uliyat va majburiyatlarini taqsimlash bo'yicha turli darajadagi turizm tashkilotlari quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

- taklif funksiyasi. Bu eng quyi pog'onadagi tashkilotlarga yuklangan, ular xizmatidan foydalanuvchilar bilan ishlashadi va mahsulotlarni yaxshi bilishadi;
- manfaatlar himoyasi. Ushbu funktsiya har bir darajada bajarilishi kerak;
- marketing funksiyasi. Bu har bir hududning mashhurligi, ahamiyati, obro'si va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bajariladi;
- "etakchi" timsolni yaratish va saqlash funksiyasi. Buni har bir darajadagi tashkilotlar bajarishi lozim.

Bugungi kunga kelib, yangi turistik tashkilotlar bozor munosabatlari nuqtai nazaridan ish tutishmoqda. Shunday qilib, turistik tashkilotlar bozor munosabatlari sharoitida sotish mumkin bo'lgan turistik xizmatlarni yaratuvchi boshqaruv organi va xususiy tashkilotlardan iborat bo'ladi. Turizm korxonalarini birlamchi va ikkilamchi xizmat ko'rsatuvchi korxonaga bo'linadi.¹¹ Birinchi turga quyidagi sub'ektlar mansub bo'ladi:

- turoperatorlar va turvositachilar;
- maxsus xizmat transport korxonalarini;
- mehmonxona tashkilotlari.


Ikkinchi turga esa quyidagi korxonalar kiradi:

- ovqatlanish korxonalarini;
- umumiy foydalanish transport vositalari.

¹¹ Буторова Н. В. Менеджмент и маркетинг иностранного туризма. - М: Советский спорт, 1999. - 43 с.

Turistik tashkilotlar turli seminarlarda ham faol qatnashib keladilar. Jumladan, 1993 yilda ilgariga “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Butunjahon turistik tashkilotiga a‘zo bo‘ldi va o‘sha kundan boshlab, O‘zbekistonni “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro loyihasining muvofiqlashtiruvchi markaziga aylantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Xususan, Toshkent shahrida Butunjahon turizm tashkiloti va YUNESKO boshchiligida “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro seminari bo‘lib o‘tdi va yig‘ilishda Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mazkur loyihaning mantiqiy davomi sifatida 1995 yildan beri har yili “Ipak yo‘li bo‘ylab turizm” xalqaro turistik yarmarkasi o‘tkazib kelinmoqda. Unda ishtirok etuvchilarning soni 100 nafardan 170 nafargacha ko‘paydi. O‘zbekistonda bunday tashkilotlar quyidagicha tasniflanadi (1.3.1-rasm):



1.3.1-rasm. O‘zbekistonda turistik tashkilotlarning guruhlar bo‘yicha tasniflanishi¹²

Darvoqe, turistik tashkilotlarning ishtiroki asosida yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2013 yil 20 martdagi PQ-1940-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish” Dasturi qabul qilinib, dastur doirasida Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Bugungi kunda loyihalar viloyatimizni turizm salohiyatini yanada taraqqiy etishida ham muhim o‘rin tutmoqda.

Chunki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida turizm sohasini rivojlantirish xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi turizm xizmatlari zamonaviy xizmat turlari sifatida

¹² Manba: Боголюбов В.С и др. Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: Академия, 2005. - 153 с.

talqin qilinib, unga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Turizm sohasining rivojlantirishda turistik tashkilotlarning roli kuchaytirildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 1993 yilda mamlakatimizda faqat 4 ta xususiy turistik firma bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda turizm xizmatlarining nodavlat sektorida 800 ta turistik firma va mehmonxona, shu jumladan, umumiy sig'imi 30 ming joydan iborat 500 ta mehmonxona va 300 ga yaqin turoperator va turagentlar faoliyat olib bormoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida, turizm va sayohat Butunjahon Kengashining ko'rsatkichi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi 2013 yilda turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakatlar qatoriga qo'shildi.¹³

Bularning mavjudligi mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, katta ishchi kuchi salohiyatiga ega aholini yangi ishchi o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida turizm xizmatlar bozorini chuqur tahlil qilish va tegishli dasturlar ishlab chiqishga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish turoperator va turagentlar tomonidan bajariladi.

Turoperatorlar turistik mahsulotni shakllantirish (tuzish yoki loyihalash), uni bozor tomon harakati, shuningdek realizatsiya qilinishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.¹⁴ Bunda turni shakllantirish muddatlari, maqsadini aniqlash bo'yicha tartiblashtirilgan va bir-biriga bog'langan, narxi va sifati bo'yicha ketma-ketligiga ko'ra kelishilgan xizmat ko'rsatish va ish bajarish, ularni taklif etish bo'yicha shartnomalar tuzish, tegishli ravishdagi bronlashtirish va rezervlashtirish hisoblanadi. Yo'naltirishda esa potensial iste'molchida ana shu ishlarni sotib olish uchun moyillik tug'dirish bo'yicha ishlar bajariladi.

Avvalo, turoperator turistik mahsulot iste'molchisi oldida javobgar hisoblanadi. Turist ko'pgina turli xil korxonalar xizmatini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatishlar paketini aynan undan sotib oladi. Ushbu javobgarlik turoperatorning tegishlicha kafolatlari va malakaviy javobgarlikni sug'urtalashni nazarda tutadi. Turli

¹³ Саидова Г.К. Узбекистан входит в ТОП-5 стран мира, демонстрирующих высокие темпы экономического роста. Интернет-журнал. URL: http://economics.uzreport.uz/news_r_104348.html (дата обращения 24.10.2014 г.)

¹⁴ Тухлиев I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S.. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2010. - 43 b.

mamlakatlarda javobgarlikning ta'minlanish darajalari turlicha belgilangan bo'ladi.

Turizmning uning turoperatorlik faoliyatida xo'jalik yuritish yangi shakllarining tez sur'atlar bilan rivojlanish jarayoni ushbu tarmoqning xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Turoperatorlar sayohat agentligining huquqiy maqomiga ega bo'lib qurilgan tashkilot hisoblanadi. Sayohatga chiqishdan boshlab, orqaga qaytgunga qadar sayohat, tunash, ovqatlanish, hordiq chiqarish, rahbarlik xizmatlari, yolg'iz va arzon bir narx orqali "pekij – tur" tayyorlagan va bu turlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki sayohat agentliklari vositachiligi yordamida sotuvchi tashkilot sanaladi.

Shuningdek, turoperatorlarning jamoat turizmi rivojlanishi, turizmning bir mojaro bo'lishdan qutqarilishi va sayohat muddati bo'yicha pul masalasining bo'lishida katta rol o'ynaydi. Hamda turoperator yaratgan imkoniyatlar va bu tizimni majbur qilgan sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:¹⁵

- turistik harakatlarning borgan sari ommaviy xususiyat qozonishi;
- "Pekij-tur" xususiyati bilan tanishish;
- turistik mahsulot hamda xizmatlarni qisman va ma'lum darajada standartlashtirish;
- o'rta tabaqa vakillarining turizmga qatnashish qoidalariga javob beradigan tannarx tasarrufi;
- turistik mahsulotning oldindan sotib olib, ishlab chiqaruvchilarga qisman davomli va kafolatli xaridor topish;
- mahsulot paketini va paketda o'rin olgan ba'zi qo'shimcha mahsulot va xizmatlarning sotish davriga kirishining yaratilishi;
- turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarga xalqaro turizmning yangi ehtiyoj va takliflari haqida ma'lumot transferlari yaratilib, ishlab chiqarish siyosatlarining yo'naltirilishi;
- axborot tizimlarining rivojlanishi;
- xorijiy til, ma'lumot va sog'liq kabi ba'zi andishalar bilan turizm harakatlariga qatnasha olishi;

¹⁵ Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности. Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 48 б.

- turizm xizmatlarini sotib olishga yoʻnalgan kishilarning muqobil yoʻllari koʻpligidan turizm qatnashishda qaror qabul qilish uchun jalb qilinishlari;

- isteʼmolchilarning transport, tunash va tomosha qilish joylarining narxlari haqidagi maʼlumotlarning chegaraliligi.

Turistik agentliklar yoki turagent - turist yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.¹⁶ Turizm agentlashtirish sohasida faoliyatning bir nechta turlari farqlanadi, jumladan shaxs nomidan va korxonaning topshirigʻi boʻyicha turlarni sotish.

Mohiyatan ushbu turli xildagi turoperatorlarning “turistik yoʻllanmalar doʻkoni” hisoblanadi. Turistik yoʻllanmada doimo bunday sotishni amalga oshirgan turoperator va turagentning barcha rekvizitlari toʻliq koʻrsatiladi, agentlik foizi tushunchasi bor boʻlgan mamlakatlarda agentlik foizining summasi doimo turistik xizmatlarning cheki yoki vaucherida koʻrsatilgan boʻladi. Bunday mamlakatlarda yoʻllanmalar yuk vaucher boʻlib, unda kassa apparatidagi maʼlumotni yozib qoʻyish uchun maxsus xoshiya mavjud. Bunday holatda agentlikning oʻzi barcha oqibatlarini va javobgarlikni boʻyniga olgan holda turoperatorlik funksiyasini bajaradi.

Shundan kelib chiqib, sayohat yoki turistik agentliklarning turizmdagi ahamiyati quyidagi sabablar hisobiga taʼminlanmoqda:

- til muammolari. Ziyorat qilinadigan davlatning tilini bilmaslik turistlarni sayohat agentliklariga murojaat qilishga majbur qiladi;

- moliyaviy ahvoli va vaqtlari chegarali boʻlgan turistlar ijobiy bir narx orqali sayohat dasturini roʻyobga chiqargan agentliklar bilan aloqada boʻlishlari lozim;

- davomli ishlash, insonlarning tomosha va sayohat dasturlarini tayyorlashga imkon bermaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sayohat agentliklarining vazifalari quyidagi yoʻnalishlardan iborat boʻladi:

- maʼlumot berish;

¹⁶ Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S.. Turizm asoslari. Oʻquv qoʻllanma. – Samarqand: SamISI, 2010. - 44 b.

- valyuta, pasport, viza va mashinani ijaraga olish;
- turistlarga kirish eshiklari va bojxona nazoratida yordamchi bo'lish;
- guruhli va shaxsiy sayohatlarni tashkillashtirish;
- turoperatorlar tomonidan tashkillashtirilgan pekij-turlarni sotish.

Ayniqsa, sayohat agentliklari quyidagi ikki xildagi vazifani bajaradilar:

- mamlakat ichiga yo'naltirilgan ishlar. Tashqaridan kelgan guruh va kishilarning sayohatlarini tashkil qilish, ya'ni mehmonxona, oshxona, vositachi va rahbar topish, qilinadigan chiqimlarni oldindan hisoblash asosiy vazifa hisoblanadi.

- tashqariga yo'naltirilgan ishlar. Bunda mamlakat ichida va tashqarisida sayohat qiladigan shaxs va guruhlarni sayohat qiladigan joylarga oid transport vositalarining biletleri, mehmonxonalarning kuponlari bilan ta'minlash va ziyoratlarni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm tashkilotlariga turizm sohasidagi quyidagi ikki xil korxonalar mansub bo'ladi:

- turoperatorlar.
- turistik agentliklar.

Ushbu korxonalar turizm xizmatining o'zi bilan bevosita shug'ullanmaydilar, balki faqat turist bilan bevosita xizmat ko'rsatuvchining o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar. O'z navbatida ularning faoliyati xizmat ko'rsatish sanaladi. Jumladan, Fransiyaning turistik qonunchiligida ushbu korxonalarni ularning mohiyati va vazifasining harakteriga muvofiq ravishda turizm tashkilotchilari deb to'g'ri nomlaydilar.

Turizm davlat tashkilotlari, davlat yoki boshqa hukumat idoralari tomonidan qurilgan va boshqaruvchi hukumat idoralariga bo'ysunuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Shular bilan birgalikda, turistik tashkilotlar turizm sohasini tashkil qilish omillarini yuzaga chiqarishga katta yordam beradi va quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- turizm moliyaviy tashkilotlar turistik korxonalariga zarur bo'lgan sarmoyani ta'minlab beruvchi tashkilot bo'lib, bunga turistik banklar kiradi.

- sayohat agentliklari xaridor bilan turistik mahsulot va xizmatlarning egalari o'rtasida vositachi rolini o'ynagan va sotilgan mahsulotdan ma'lum bir foizni oluvchi

tijoriy tashkilot sanaladi. Sayohat, ya'ni turistik agentliklar turizm talabi va taklifi o'rtasidagi tijoriy hayotda tijoratchi rolini o'ynaydi.

Avvalo, tijoriy hayotning rivojlanishi va tijorat vositalarining ahamiyatini oshirishda turizm sohasida 1950 yildan beri sayohat agentliklarining ham ahamiyati oshib bormoqda. Tashqi turistlarning 50 foizi chipta olish, ovqat kuponlarini to'g'irlash va xonani bron qildirish uchun sayohat agentliklariga murojaat qiladilar. Hamda xalqaro turizmdagi ish hajmining 75 foizi sayohat agentliklari tomonidan ro'yobga chiqariladi.

Umuman olganda, turistik tashkilotning xizmat ko'rsatishidagi umumiy o'ziga xos xususiyati bilan bir qatorda undan farq qiluvchi quyidagi xususiyatlari mavjuddir:

- turli komponentlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning murakkab tizimi bilan tavsiflanuvchi tovar va xizmatlarning majmuasi bo'lishi;

- turistik xizmatga bo'lgan talab narx va foydaga taqqoslaganda juda ham egiluvchan, ammo ko'pincha siyosiy-ijtimoiy sharoitlarga bog'liq bo'lishi;

- iste'molchi qoidaga muvofiq, turmahsulotni iste'mol qilmasdan oldin ko'ra olmasligi, iste'molning o'zi bevosita turistik xizmat ishlab chiqarilgan joyda amalga oshirilishi;

- turmahsulot vaqt va makon kabi o'zgaruvchan omillarga bog'liqligi, shuning uchun unga bo'lgan talabning doimiy ravishda o'zgarib turishi;

- turistik mahsulotlarning ko'plab korxonalarining faoliyati bilan vujudga kelishi, ularning har biri o'zining turli xil tijorat maqsadlari, o'ziga xos iste'mol va ishlash usullariga ega bo'lishi;

- arzimagan kamchiliklarning mavjudligi tufayli ham yuqori sifatli turistik xizmatga erishish mumkin emasligi, vaholanki turistlarga xizmat ko'rsatish mana shu mayda detallardan tashkil topishi;

- turistik xizmat sifatini baholashning muhim sub'ektivligi bilan ajralib turishi, iste'mol qilingan xizmatlar paketiga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan shaxslar iste'molchining bergan bahosiga katta ta'sir o'tkazishi;

- turistik xizmatlar sifatiga tashqi omillarning ta'sir ko'rsatishi, jumladan tabiiy shart-sharoitlar, ob-havo, turizm sohasidagi siyosat, xalqaro voqealar va boshqalar.

II-BOB. XORAZM VILOYATI TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING YO‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

2.1. Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili

Bugungi kunda Xorazm viloyatida turizm sohasi jadal va barqaror rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi va uning faoliyat yo‘nalishlari keng taraqqiy qilib bormoqda. Turizm tufayli xizmat ko‘rsatish sohasi ham alohida rivojlanib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib bormoqda va xizmat ko‘rsatishning servis va sifat kabi jihatlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining jadal va barqaror rivojlanib borishi Xorazm viloyatida turizm sohasining alohida tarmoq sifatida keng taraqqiy qilib borishiga muhim zamin yaratdi va bugungi kunga kelib, eng muhim ustuvor sohalardan biriga aylandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari xizmat qiladi.

Chunki, Xorazm viloyati hududi Buyuk ipak yo‘lining markazida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistonning eng yuqori sayyohlik salohiyatiga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e‘tirof etilishi hamda YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi, nafaqat Xorazm viloyati, balki O‘zbekistonning jahon turizm bozoriga dadil kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida turizm sohasi global tarmoq sifatida istiqbolli eng yaxshi rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Uning ixtisoslashgan turlari mamlakat va mintaqa miqyosda shaxslararo, madaniy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qiladi. Hamda bu soha bajarilgan turizm xizmatlari hajmi, kelgan turistlar soni, mehmonxonalar va undagi o‘rinlar sonining oshishi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladigan turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu borada Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida tarixiy-madaniy meros ob‘ektlari ro‘yxatga olinib, ularning faoliyati takomillashtirilmoqda (2.1.1-jadval).

**Viloyatdagi mavjud tarixiy-madaniy meros ob'ektlari to'g'risida
ma'lumot¹⁷**

| № | Hudud | Arxeo- logiya yodgor- lik lari | Arxitek- tura yodgor- lik lari | Haykal- tarosh- lik san'ati yodgor- lik lari | Diq- qatga sazo- vor joy-lar | Muqad- das joy- lar | Ja- mi |
|----|--------------------|--|--|--|--|---------------------------|-----------|
| 1 | Urganch shahar | - | 8 | 8 | 5 | 3 | 24 |
| 2 | Urganch tumani | 1 | 4 | 14 | - | 4 | 23 |
| 3 | Xiva shahar | 4 | 88 | 8 | 1 | 1 | 102 |
| 4 | Xiva tumani | - | 10 | 9 | - | 1 | 20 |
| 5 | Hazorasp tumani | 7 | 11 | 4 | - | 3 | 24 |
| 6 | Shovot tumani | 3 | 2 | 3 | - | 1 | 9 |
| 7 | Bog'ot tumani | 1 | 2 | 4 | - | 7 | 14 |
| 8 | Yangiariq tumani | 2 | 1 | 3 | - | 2 | 8 |
| 9 | Gurlan tumani | - | 1 | 5 | - | 1 | 7 |
| 10 | Yangibozor tumani | - | - | 4 | - | 1 | 5 |
| 11 | Qo'shko'pir tumani | - | 1 | 1 | - | 7 | 9 |
| 12 | Xonqa tumani | - | 5 | 4 | - | 1 | 10 |
| | Jami: | 18 | 132 | 67 | 6 | 32 | 255 |

Ushbu jadvalga asosan, Xorazm mintaqasida 2016 yilda 255 ta madaniy meros yodgorliklari mavjud. Ulardan 18 tasi arxeologiya, 132 tasi me'morchilik, 67 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas qadamjolaridir. Bu noyob turistik resurslar, asosan, Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan bo'lib, bunday yodgorliklar viloyatning boshqa tuman va shaharlarida ham ko'plab uchraydi.

Mana shunday beqiyos madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob obidalaridan dunyo ahlini xabardor qilish va bu erga imkon qadar ko'proq xorijiy sayyohlarni jalb etish ushbu sohani yaqin kelajakda rivojlantirish borasidagi eng

¹⁷ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

dolzarb vazifa hisoblanadi. Viloyatda ko‘plab tarixiy-me‘moriy obidalarning mavjudligiga qaramasdan, hanuzgacha ular to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan ma‘lumotnoma tuzilmagan. Bog‘ot tumanidagi “Qal’ajik” qal’asi, Urganch tumanidagi “Ulli hovli” obidasi, Xiva tumanidagi “Bog‘ishamol” yozgi bog‘i, “Chodira” bog‘lari va “Eshonravot” ko‘llari bo‘ylab yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin.¹⁸

Bundan tashqari, viloyatda ekologik turizmni rivojlantirish uchun ham ulkan salohiyat mavjud. Bog‘ot, Honqa va Urganch tumanlarining Amudaryo sohilida ekologik turizm va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Mintaqaning turizm salohiyati muayyan rekreatsion resurslarga ham ega. Masalan, Xiva tumanidagi “G‘ovukko‘l” va “Eshonravot” ko‘llari bo‘yida sayyohlik majmuasini yaratish va baliqchilikni rivojlantirish, chodirlar, suzish vositalari ijarasi xizmatlari hamda cho‘milish havzalari infratuzilmasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Dam olish zonasini tashkil etish, nafaqat mintakaning, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari aholisida hordik chiqarishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Kelajakda esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish evaziga boshqa viloyatlar aholisi hamda chet ellik turistlarni jalb etish mumkin.

Mintaqada turizmni rivojlantirishning yana bir yo‘nalishi tibbiy xizmatlarni tashkil etishdir. Bu Hazorasp, Bog‘ot, Xonqa, Urganch va Gurlan tumanlarida shifobaxsh er osti suvlaridan foydalanish bilan bog‘liq.

Xorazm viloyati sayyohlik salohiyatini targ‘ib qilish borasida ko‘proq chet el tajribasini o‘rganish, reklama va marketing ishlarini yangi asoslarda tashkil qilish, tarixiy obidalarga tegishli o‘ziga xos afsonalarni yozib olish va tarqatish hamda yangi turistik yo‘nalishlarni tashkil etish kerak bo‘ladi. Turizm sohasining hozirgi holati tahlili viloyatga keluvchi sayyohlar sonining yildan-yilga o‘sib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

¹⁸ Manba: Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Loyiha. – T., 2014.

Xorazm viloyatida turizm rivojlanishiga monelik qilayotgan sabablar sifatida vohaning asosiy turistik markazlardan uzoqda joylashganligi, targ'ibot ishlarining talab darajasida emasligi, viloyatda turizm xizmatlari sifatining jahon andozalariga javob bermasligi, qo'shimcha xizmatlar (transport, bank, sanitariya-epidemiologik va sug'urta xizmatlari) rivojlanish darajasi pastligini ko'rsatish mumkin. Natijada, vohada mavjud sayyohlik salohiyatining atigi 10-15 foizidan foydalanilmoqda. Shu o'rinda viloyatda turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni alohida tahlil qilish kerak.

Ana shularga asoslanib viloyatda turizm sohasi rivojlanib, bugungi kundagi ahvoli yaxshilanib bormoqda. Xususan, Xorazm viloyatida 2016 yilda 2012 yilga nisbatan sayyohlik tashkilotlari soni 36 tadan 72 taga oshgan yoki 2 barobarga ko'pagan. Shundan mehmonhonalarning soni 26 tadan 52 taga yoki 2 martaga ko'paygan. Bu ulash Urganch shahrida 12 taga, Xiva tumanida 34 taga, Hazorasp tumanida 4 taga va Gurlan tumanida 2 taga to'g'ri keladi.

Shuningdek, viloyatda turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning soni 10 tadan 20 taga etdi yoki 2 martaga oshgan. Ushbu raqamni viloyatning tumanlariga taqqoslaydigan bo'lsak, Urganch shahrida 9 ta, Xiva tumanida 8 ta, Urganch tumanida 1 ta, Hazorasp tumanida 1 ta va Bog'ot tumanida 1 taga to'g'ri keladi. Xususan, 2016 yilning o'zida 10 ta, ya'ni Urganch shahrida 4 ta va Xiva tumanida 6 ta mehmonxona hamda 3 ta, ya'ni Urganch shahrida 1 ta, Xiva tumanida 1 ta va Hazorasp tumanida 1 ta turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari o'z ish faoliyatini boshladilar.

Shular bilan birga, bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ular qatoriga "Xeyvak", "Xiva malikasi", "Xorazm malikasi", "Arqonchi", "Xayot INN" mehmonxonalarini kiritish mumkin. Hamda mehmonxonalaridagi o'rinlarning soni 1477 tadan 2300 taga etdi yoki 55 foizga oshdi. Demak, viloyatda turizm sohasidagi o'zgarishlar hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida bugungi kunda jami sayyohlik tashkilotlarida 450 nafardan ortiqroq xodimlar mehnat qilib kelmoqdalar.

Biroq, Xorazm viloyatiga 2012 yilda tashrif buyurgan jami (xorijiy va mahalliy)


sayyohlar soni 63,6 mingdan ortiqni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 75,8 mingdan ortiqni tashkil qilib, 20 foizga oshgan (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. 2012-2016 yillarda Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni¹⁹

Ushbu rasimga asosan, berilgan beshta yil ichidan 2013 va 2016 yillarda sayyohlarning kelishi ko'rsatkichlari yuqori darajaga etgan. Shuningdek, 2015 yilda dunyoning 80 tadan ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatga tashrif buyurishgan bo'lishsa, 2016 yil yakunida ushbu ko'rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizga oshgan.

2012 yilda xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 5562,1 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bilan 11389,9 mln. so'mni tashkil qildi va jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2012 yilga nisbatan ikki barobarga oshdi. Kelgusida bu ko'rsatkichning yanada yaxshilanishi kutilmoqda (2.1.2-rasm).




2.1.2-rasm. 2012 va 2016 yillarda Xorazm viloyatiga turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'mda)²⁰

¹⁹ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

²⁰ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

Ushbu rasmga asosan, 2012 yilga nisbatan 2016 yilda ana shunday yuqori oʻsish boʻlganligining sababi shundaki, turistlarga xizmat turlarining koʻpayib va kengayib borishi, xizmatlar koʻrsatish samaradorligini oshirish boʻyicha dasturlarning qabul qilinishi sanaladi.

Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarga koʻrsatilgan eksport xizmati xajmi 2013 yilda 1,8 mln.dollarga teng boʻlib, 2013 yilga nisbatan 2016 yilda 20 foizga oshib, bu koʻrsatkich 2,3 mln. dollarni tashkil qildi (2.1.3-rasm).



2.1.3-rasm. 2013 va 2016 yillarda Xorazm viloyatiga turistik eksport xizmat koʻrsatish hajmi (mln. dollarda)²¹

Biroq, bugungi kunda xorijiy sayyohlarning viloyatimizda oʻrtacha qolish kunlari 2012 yildagi 1,1 sutkadan 2016 yilda 1,8 sutkagacha koʻpaydi. Chunki, bu holatlar ularning viloyatning turistik obidalariga qiziqishi yanada kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bir nafar xorijiy sayyohning oʻrtacha xarajati 2012 yilda 80 AQSH dollarni tashkil qilgan boʻlsa, bugungi kunda 1 kunlik oʻrtacha xarajat 180-200 AQSH dollarni tashkil etmoqda.

2012-2016 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasi rivojlanishda davom etdi va uning tarkibida turistik tashkilotlar soni, turistlarga koʻrsatilgan xizmatlar hajmi va kelgan sayyohlar sonida ijobiy oʻzgarishlar kuzatildi (2.1.2-jadval).

²¹ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

2.1.2-jadval

2012-2016 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasining rivojlanishi haqida ma'lumot²²

| Yillar | Tashkilotlar soni | | | Ko'rsatilgan xizmatlar xajmi | | Kelgan sayyohlar soni (ming) | | | Xorijga chiqqan sayyohlar soni |
|--------|-------------------|----------------------|------------------------|------------------------------|------------------|------------------------------|--------------|---------------|--------------------------------|
| | Ja- mi | Meh- mon- xona | Sayyohlik firmalari | So'm (ming) | Dollar (ming) | jami | Shundan | | |
| | | | | | | | Xori- jiy | Mahal- liy | |
| 2012 | 30 | 23 | 7 | 5562147,1 | 3347,1 | 63,6 | 47,4 | 16,2 | 100,0 |
| 2013 | 36 | 26 | 10 | 8673658,8 | 1888,6 | 73,3 | 53,3 | 20,0 | 269,0 |
| 2014 | 51 | 35 | 16 | 8314590,0 | 2166,7 | 67,7 | 46,2 | 21,5 | 72,0 |
| 2015 | 59 | 42 | 17 | 8757247,0 | 1977,5 | 63,4 | 40,6 | 22,8 | 88,0 |
| 2016 | 72 | 52 | 20 | 11389963,7 | 2308,2 | 75,8 | 46,6 | 29,2 | 135,0 |


Jadvalga muvofiq, 2016 yilda jami 72 ta turistik tashkilot bo'lib, uning 52 tasi mehmonxonaga va 20 tasi sayyohlik tashkilotlariga to'g'ri keladi. Hamda turistlarga 11389963,7 so'mlik xizmat ko'rsatilgan. Kelgan sayyohlar soni 75,8 ming nafarni tashkil etgan, 135,0 ming kishi sayyoh sifatida xorijiy mamlakatlarga borganlar.

Shuningdek, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, viloyatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni 46,6 mingtadan ortiq bo'lib, o'tgan yilning shu davrida ushbu ko'rsatkich 40,6 mingtani tashkil qilgan.

Ya'ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xorijiy sayyohlarning viloyatimizga tashrifi 15 foizga ortgan. Shu jumladan, MDH davlatlaridan 2015 yil davomida 5767 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 6600 nafarni tashkil qilib, 15 foizga oshgan.

2015 yilda 22767 ta mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 29200 tadan ortiqni tashkil qilib, qariyb 30 foizga oshgan (2.1.4-rasm).

²² Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari



2.1.4-rasm. 2015-2016 yillarda Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni (nafar kishi)²³

Ushbu rasimga asosan, viloyatda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tashrif buyurishi 2015 yilda 22767 nafar va 29200 nafar kishini, hamdo'stlik davlati fuqarolarining kelishi 2015 yilda 5767 nafar va 6600 nafar kishini hamda horijiy sayyohlarning kelishi 2015 yilda 34822 nafar va 40014 nafar kishini tashkil etdi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili turizm bilan bog'liq o'zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini ko'rsatadi. Buni to'liq yuzaga chiqarish uchun infratuzilma tarmoqlarining tutgan o'rni va turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari tadqiq qilish kerak bo'ladi.

2.2. Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o'rni

Xorazm viloyatida turizm sohasi o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan viloyatdagi barcha sohalarga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko'pgina

²³ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi. Jumladan, bularga transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi va savdo tarmoqlari kiradi. Shuning uchun ham, Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq sohalarni qamrab oladi.

Demak, viloyatdagi turizm infratuzilmasi o‘z ichiga transport va joylashtirish vositalari, ovqatlanish korxonalari, sayr-tomoshalar va ko‘ngil yozish, aloqa va axborot vositalari, sayohat agentliklari, ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish, litsenziyalash, xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlash, sug‘urtalash, rasmiyatchilik, ishlab chiqarish tarmoqlari hamda turizm boshqaruvi kabilarni oladi.

Hamda bu turistik mahsulotlarni shakllantirishda ishtirok etuvchi tarmoqlar bo‘lgan transport, aloqa axborot vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari, energetika, suv ta‘minoti, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi, kommunal xo‘jaligi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, joylashtirish vositalari, savdo xizmati ko‘rsatish, ovqatlanish korxonalari, madaniy va sport inshootlari, moliyaviy tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi idoralari va unga qo‘shimcha turizm sohasini boshqaruvchi majmua hisoblanadi.

Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasi parallel ravishda tashkiliy va huquqiy tashkil etish shakllarida namoyon bo‘ladi. Infratuzilma turizm tizimida umumiy va ijtimoiy-iqtisodiy shartlarning tarkibiy qismi sifatida ko‘zga tashlanadi. SHuning uchun ham, hozirgi kunda viloyat turizmida aholining ehtiyojini to‘liq va sifatli qondirish uchun yuqori pirovard nisbatiga qaratilgan progressiv texnologiyalar va infratuzilmani samarali boshqarish zarur.

Ana shularni hisobga olib, Xorazm viloyati turizmi sohasini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlari muhim o‘rin tutadi. Bunga Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2013 yil 20 martdagi PQ-1940-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish dasturi”ni amalga oshirilishi natijasida erishildi.

Shuningdek, joriy yilning 1-yarim yilligida Xorazm viloyatda yalpi hududiy mahsulot xajmi 11,1 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 30,8 foizga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish hajmi 6,2 foizga, bajarilgan qurilish-montaj ishlari 3,9 foizga o‘shirishiga erishildi.²⁴

Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilarni faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash natijasida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 40,2 foizga, mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi 2,5 foizga, chakana tovar aylanmasi 14,5 foizga va xizmatlar 12,4 foizga o‘shirish ta‘minlandi. Joriy yilning 1-yarim yilligida 767 ta loyiha o‘rniga 932 ta loyiha amalga oshirilib 251 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritildi va 4922 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Prezidentimizning yuqorida keltirilgan “2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan hisobot davriga qadar qo‘shimcha loyihalar bilan birga qiymati jami 270,8 mln. dollarlik 274 ta loyiha amalga oshirilib, 8175 ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilindi. Dastur doirasida shu kunga qadar 36 mingdan ortiq «Damas», 3 mingga yaqin “Orlando” rusumli avtomobillar, 119 ta ekskavator va 54 ta buldozerlar ishlab chiqarildi.

Shuningdek, viloyatda maishiy gaz ballon, muzlatkich, metall armaturalar, sport inventarlari xamda kir yuvish kukuni, yuqori kuchlanishli apparatlar, tikuvchilik mahsulotlari kabi yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi.

Xududiy korxonapar tomonidan 19,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirilib, belgilangan bashorat ko‘rsatkichi 107,3 foizga bajarildi. Prezidentimizning “Urganch shahrining bosh rejasini amalga oshirish, obodonlashtirish ishlarini va Xorazm viloyati aholisining ichimlik suvi ta‘minotini tubdan yaxshilash chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan o‘tgan davr mobaynida keng miqyosda qurilish ishlari amalga oshirildi.

Xususan, Urganch shahar yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga 194 mlrd. so‘m, viloyat injenerlik-kommunikatsiya

²⁴ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/253>

infratuzilmasini ta'mirlash va modernizatsiya qilishga 202 mlrd. so'm hamda shaharda arxitektura ko'rinishini yaxshilash, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga 662 mlrd. so'm sarflandi.

Shu bilan birga, viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risidagi Qaroriga muvofiq hisobot davriga qadar 45.3 mln. dollarlik 99 ta loyiha to'liq amalga oshirildi. Viloyatda sayyohlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlari kengaydi va sifati har tomonlama yaxshilandi.

Bandlik dasturiga asosan 28,2 mingta yangi ish o'rinlari yaratilib, birinchi yarim yillik prognoz ko'rsatkichi 101,4 foizga bajarildi. Prezidentimizning shu yil 15 mayda qabul qilgan "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida iqtisodiyotda xususiy mulkning o'rnini va rolini tubdan oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk ulushini yanada izchil oshirish uchun imkoniyatlar qayd etilgan.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "nol" qiymatda sotilishi belgilangan 5 ta va ommaviy savdolarga chiqarilgan 6 ta ob'ektlarga salohiyatli investorlarni jalb qilish, 2 ta past rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalarini tugatish ishlarini yakunlash, 26 ta ob'ektni buzishdan bo'shagan 14,3 gektar er maydonlarini tadbirkorlik sub'ektlariga bir yil ichida qurib bitkazish sharti bilan tanlov savdolarida sotish rejalashtirilgan.

Darhaqiqat, viloyatda turizmni rivojlantirish dasturiga asosan, 2013-2015 yillarda jami 214,3 mlrd. so'mlik 200 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bugungi kungacha 108 ta loyiha to'liq bajarilib, 49,3 mln. dollarga teng investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi, 36,5 mln. dollarlik 46 ta loyihada ishlar davom etmoqda.

Shuningdek, viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini

namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo‘shimcha ob’ektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha dastur doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, turistlarga yangi sayyohlik yo‘nalishlari taqdim qilish borasida Xiva tumanida “Bog‘i shamol”, “Xiva qorako‘l” fermerlik xo‘jaligida, “Eshon Ravot” ko‘lida, Bog‘ot tumanida “Qal’ajiq qal’a”, Urganch tumanidagi “Ulli hovli” ob’ektlarida yangi sayyohlik infratuzilmalari tashkil etildi.

Shu bilan bir qatorda, Urganch xalqaro aeroportining binosini zamonaviy halqaro standartlar talablari hamda zarur infratuzilmalarni e‘tiborga olgan holda qayta ta‘mirlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari yuksak darajada olib borildi.

Yangi kutib olish va kuzatish terminallari jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy qulayliklarga ega bo‘ldi. Bu erda keng va yorug‘ zallarga eng so‘ngi rusumdagi jihozlar o‘rnatildi. Ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, “Duty free” do‘koni, qahvaxona shular jumlasidandir. Bundan tashqari, binoda 200 nafar yo‘lovchi sig‘imiga ega tranzit hamda “VIP”, “CIP” zallari, sayyohlar uchun maxsus va qulay xizmat turi bo‘lgan axborot ofisi tashkil etildi. Dastur doirasida 2014 yildan Parij, Milan va qo‘shimcha Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg va Volgograd shaharlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviareyslar qatnovi amalga oshirilmoqda.

Urganch shahridagi Shovot kanali bo‘yida zarur infratuzilmaga ega kemalar to‘xtashi uchun maxsus joylar barpo etildi, yangi kemalar sotib olinib, ishga tushurildi. “Shovot” kanali bo‘yida dam olish maskanlari barpo qilindi. 2014 yil dekabr oyida dastur ijrosining bajarilishi maqsadida Urganch shahar “SHeroziy” ko‘chasida zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan 5 qavatli gipermarket qurib ishga tushurildi.

Viloyatda turizm industriyasi rivojlanishi xamda kelayotgan xorijiy sayyohlar sonining oshishi hamda sayyohlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishida zarur bo‘ladigan viza masalalarini rasmiylashtirishda qulayliklar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining konsullik bo‘limini Urganch shahrida ochish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil

21 dekabrda PQ-2689 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik bo‘limini Samarqand, Buxoro, Urganch va Nukus shaharlarida ochish va kelgusida Termiz shahrida konsullik bo‘limining faoliyati yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Tarixiy madaniy meros ob‘ektlarni ta‘mirlash va holatini yaxshilashga doir 15,2 mln. AQSH dollari yoki 5,6 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan 39 ta madaniy meros ob‘ektlarini ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib dastur doirasida davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 19 ta obidada jami 6,8 mlrd.so‘mlik ta‘mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, turizmga transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida Dastur doirasida xorijdan keltiriladigan mahsulotlarni bojxona to‘lovlaridan ozod qilish haqida 2015 yilning 1 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri tomonidan 958-sonli farmoyishi qabul qilindi va bu yuzadan 2015 yil 4 dekabrda Xorazm viloyati hokimining 148-sonli farmoyishi chiqarildi. Ushbu farmoyish ijrosini ta‘minlash maqsadida “Zuxro travel” MCHJ tomonidan bir dona mikroavtobus sotib olib kelindi.

“Bek tur” MCHJ tomonidan ikkita Higer Bus va Hyundai mikroavtobusi sotib olib kelindi. Sayyohlar uchun qo‘shimcha ob‘ektlar infratuzilmasini yaxshilash yo‘nalishi bo‘yicha dastur doirasida viloyatda 17,25 km. uzunlikdagi optik-tolali kabel o‘tkazilib, 2304 ta internet portlari o‘rnatildi.

Aeroport, temir yo‘l vokzali hamda “Ichan Qal’a” majmuasi hududida sayyohlik ob‘ektlari va mehmonxonalarda Wi-fi internet zonalari tashkil qilindi. “Ichan Qal’a” majmuasi hududi, Urganch shahridagi mehmonxonalarga 13 ta terminal va bitta bankomatlar o‘rnatilib, 7 ta valyuta ayriboshlash shoxobchalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

“Xorazm Ma‘mun” akademiyasi tomonidan “Wikipedia” elektron ensiklopediyasida hududning diqqatga sazovor joylari tarixi haqidagi 28 ta maqolalar joylashtirildi. Ular jumlasiga “Xumbuztepa” yodgorligi, “SHerg‘ozixon” madrasasi, “Muxammad Raximxon” saroyi va “Katqal’a” yodgorligi bo‘yicha maqolalarni kiritish mumkin.

Xususan, Xiva shahrining 3D modelini yaratish va Google Earth dasturiga joylashtirish maqsadida ob'ektlar teksturasini yaratish uchun ro'yxatga asosan ob'ektlar fasadi fotosuratlari ishlab chiqilgan. Bugungi kungacha Google dasturiga 62 ta ob'ekt joylashtirildi.

Hududning tarixi va madaniyatini tarannum etuvchi yagona majmuaga birlashtirilgan "O'lkashunoslik" muzeyi va "Avesto" muzeyi negizida doimiy faoliyat yurituvchi O'lkashunoslik ekspozitsiyalari tashkil qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va taqdim qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 avgustdagi 511-sonli farmoyishiga muvofiq "Xorazm Ma'mun" akademiyasi negizida "O'lkashunoslik" va "Avesto" muzeylari eksponatlari mujassamlashtirilgan holda "Xorazm madaniyati va tarixini tarannum etuvchi doimiy xarakatdagi ekspozitsiya"ni tashkil etish ishlari yakunlandi.

"Xorazm tarixi va madaniyati" doimiy ekspozitsiyasi eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan davr tarixini qamrab olgan 12 ta bo'limdan iborat bo'lib, doimiy ekspozitsiya uchun Xorazm Ma'mun akademiyasi binosidan 2 ta zal ajratildi. Bugungi kunda doimiy ekspozitsiya chiptasi narxlari va turizm marshurtiga kiritish bo'yicha Xorazm Ma'mun akademiyasi tomonidan O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga takliflar bildirilgan.

Sayyohlarni xordiq chiqarish industriyasini rivojlantirish borasida 2013 yil 5 aprel kundan boshlab, "Doston folklor", "Xiva folklor" etnografik xalq ansambli va "Sayqal" oilaviy folklor ansambllaridan iborat badiiy jamoalar "Ollaqulixon" madrasasida mavsum davomida xorijiy sayyohlarga har kuni o'z konsert dasturlarini namoyish qilib boshladilar.

"Ichan-Qal'a" majmuasida 2013 yilning sentyabr oyidan sayyohlarga O'zbek milliy kino durdonalari namoyishini tashkil qilish maqsadida, "Tohir va Zuxra", "Nasriddinning sarguzashtlari", "Alisher Navoiy" va "O'tgan kunlar" kabi o'zbek milliy kino durdonalari ingliz tili subtitrlarda mavsum davrida har kuni "Ko'hna Ark" yozgi kinoteatrda, shuningdek, viloyat "Ogahiy" nomidagi drama teatri va viloyat qo'g'irchoq teatri hamkorlikda 2014 yilning aprel oyidan "Tosh hovli" majmuasida "Xon qabulida" deb nomlanuvchi teatrlashtirilgan sahna tomoshalari sayyohlarga

namoyish etilmoqda. Shuningdek, 2013 yildan boshlab, har yili iyun oyida “Xorazm madaniyati” festivali, har yili avgust oyida o‘tkaziladigan “Gurvak-Xorazm qovunchiligi ramzi” festivallarini o‘tkazish an’ana tusiga kirdi.

Suvenirlar ishlab chiqarish industriyasini rivojlantirish sohasida “Xorazm gilamlari” katalogi 500 ta nusxada chop etildi. Viloyatning brendiga doir ramzi tushirilgan futbolkalar ishlab chiqarilib savdoga qo‘yildi. “Xiva Sopoli” MCHJ korxonasi tomonidan 7 tadan ortiq suvenir mahsulotlarning ishlab chiqarilishi amalga oshirildi va kelgusida Xitoy va Vengriya davlatlaridan yangi texnologik asbob-ukunalarni sotib olish borasida chuqur izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Turistik imkoniyatlarni namoyish qilish borasida Xorazm viloyatining boy madaniy merosi va turizm salohiyatini namoyish qiluvchi brendi yaratildi va jahon turizm bozorida ya’ni 2013 yildan boshlab, Toshkent xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida viloyat turistik tashkilotlari viloyatning brendi ostida ishtirok etishni boshlashdi.

Shuningdek, sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida viloyatimizning yo‘l ko‘rsatkich xaritasi 10000 ta nusxada chop etilib sayyohlarga tarqatilmoqda. Hududning turistik imkoniyatlarini reklamasini tashkil etish borasida xorij ommaviy axborot vositalari xodimlari va xorijiy turoperatorlarga “Mego-info-turlar” tashkil etilib, shu kungacha dunyoning 30 dan ortiq mamlakatdan 56 nafar ommaviy axborot va 423 nafar xorijiy turistik tashkilotlar vakillari qabul qilindi.

Viloyatimizni turizm salohiyatini xorijiy davlatlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritish maqsadida dunyoning etakchi bo‘lgan “SMG” (Xitoy), “Kelvinfilm GmbH” (Germaniya), “Euronews” (Fransiya) va “Bi-Bi-Si” (SHotlandiya) teleradiokompaniyalari tomonidan viloyatning turizm salohiyatiga doir bo‘lgan hujjatli filmlar suratga olindi.

Viloyatning sayyohlik sohasiga doir rasmiy veb-sayti - www.visitkhorezm.uz yaratildi va viloyatning sayyohlik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi. Hududning sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish va sayyohlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Ichan Qal’a” va “Urganch” xalqaro aeroportida

sayyohlik axborot markazi ishga tushurildi.

Shu bilan birga, dasturning ijrosi doirasida Xorazm viloyati turistik faoliyat sub'ektlarining har yili milliy turistik xizmatlarni eksport qilishga xizmat qiluvchi yirik xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokini ta'minlash maqsadida 2013 yilning 24-27 sentyabr kunlari Fransiyada o'tkazilgan "TOP REZA" sayyohlik yarmarkasida viloyat turistik kompaniyalari "Bek-tur" MCHJ va "Qal'ajiq tur" MCHJ ishtirok etib keldilar. Hamda 2014 yilning 7-9 aprelida Germaniyaning Berlin shahrida o'tkazilgan ITB xalqaro turistik yarmarkasida "Javhar Xulkar YUlduzi" sayyohlik firmasi faol ishtirok etib keldi.

Muhtaram Prezidentimizning 2013 yil 20 martdagi "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida sayohlik sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PK-1940-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu sayyohlik taraqqiyotini ko'zlovchi Dastur doirasida viloyatda jami 118 ta 86,8 mln. dollar ekvivalentiga teng turizm sohasini va infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyiha tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi.

Jumladan viloyatning turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohasida 18 ta, turistik marshrutlar va xizmatlarni takomillashtirish 45 ta, viloyatning turistik salohiyatini keng taqdimot etish 10 ta, turizm sohasini rivojlantirish bilan bog'liqqo'shimcha infratuzilma ob'ektlarini yaxshilash 31 ta va turizm sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishi bo'yicha 14 ta loyiha tadbirlar bajarilishi belgilandi.

Urganch xalqaro aeroportida jahon standartlariga javob beradigan va zamonaviy qulayliklarga ega yangi terminal qurib foydalanishga topshirildi, Xiva shahridagi madaniyat istirohat bog'i to'liq ta'mirlandi, Urganch shahrida 4-qavatli yangi zamonaviy gipermarket qurib bitkazilib foydalanishga topshirildi.

Ushbu sayyohlik taraqqiyotini ko'zlovchi Dastur doirasida viloyatda 86,8 mln. AQSH dollari miqdoridagi investitsiya o'zlashtariladi va 200 ga yaqin loyiha amalga oshiriladi, 30 taga yaqin yangi mehmonxonalar qurilib ulardagi o'rinlar soni hozirdagiga qaraganda ikki marta ko'payadi.

Unga ko‘ra 14 ta mehmonxona yangidan qurilib, avvaldan mavjud uchta jahon andozalariga javob beradigan darajada to‘la qayta ta‘mirlanadi. 20 dan oshiqqo‘shimcha sayyohlik xizmatlari yangidan yo‘lga qo‘yiladi. G‘ovuq-ko‘l va Chinobod qishlog‘idagi ko‘llar atrofida sayyohlik majmualari bunyod etiladi. Qadim shaharga kiraverishda xuddi markaziy shaharlardagi kabi ko‘p qavatli, ko‘rkam, zamonaviy turar-joylar qad rostlaydi.

Keng, ravon yo‘llar quriladi. Ko‘plab maishiy, savdo, umumiy ovqatlanish shahobchalari barpo qilinadi. Yangi bog‘lar, gulzorlar, hiyobonlar shahar ko‘rkiga ko‘rk ko‘shadi. Ichonqal‘aga kiraverishda Ota darvoza oldida "Mehmondo‘stlik maydoni"ga tutash ajoyib amfiteatr quriladi. Hunarmandchilik, servis xizmatlari ko‘rsatish shoxobchalari bunyod etiladi.

Shahar qurilishida asosiy ko‘chalar kengaytirilishi rejalashtirilmoqda, bu bilan ko‘chalarda ko‘kalamzorlashtirish maydonlarining kengayishi, avtotransport vositalarining harakatlanishida qulayliklar, ko‘cha bo‘ylab dam olish va hordiq chiqarish uchun maydonchalarning shakllanishi shaharhududida qulay mikroiklim yaratilishiga imkoniyat tug‘diradi.

Xorazm vohasida shahar qurilishi sohasida olib borilayotgan ulkan ishlarni viloyat markazi Urganch shahri misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Urganch shahrining yangi bosh rejasi “O‘zshaharsozlik LITI” DUK loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilib, 2011 yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Respublika arxitektura va shaharsozlik kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib ma‘qullandi.

“O‘zshaharsozlik LITI” DUK tomonidan ishlab chiqilgan Urganch shahrining yangi bosh rejasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 6 dekabrda "Urganch shahrining bosh rejasini amalga oshirish, obodonlashtirish ishlarini va Xorazm viloyati aholisini ichimlik suvi ta‘minotini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1874-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Bosh rejada hisob muddati 2030 yilgacha va birinchi navbat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi 2015 yilgacha belgilangan. Bosh rejada shahardagi madaniy meros ob'ektlarini saqlash, atrof-muhit muhofazasi, Shovot kanalining qirg'oq bo'yi mintaqalarini obodonlashtirish, keng ko'lamdagi ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish tadbirlari ishlab chiqilgan.

Yangi bosh rejaga asosan, shaharning mavjud tarixiy qismini hisobga olgan holda, yangidan quriladigan ko'chalar tarmoqlari ilk marotaba xalqa tizimida amalga oshirilgan, shaharning markaziy qismida rekonstruksiya ishlari rejalashtirilgan.

Bosh rejada shahar arxitektura qurinishini yangilash, bozor va ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirishning 2013-2017 yillarga mo'ljallangan dasturlari ishlab chiqildi.

Urganch shahrini zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qayta qurish maqsadida umumiy qiymati 1,600 trl.so'mni tashkil etadigan Dastur ishlab chiqilib, keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari boshlab yuborilgan.

Bunda shaharning Al-Xorazmiy ko'chasi 1950-1960 yillarda ikki qavatli uylar qurilgan bo'lib, o'tgan yillar davomida sodir bo'lgan zilzila, sel va boshqa tabiiy ofatlar natijasida yaroqsiz ahvolga kelib qolgan edi. Huddi shunday SHeroziy, G'. G'ulom, Paxlovon Maxmud va Al-Beruniy ko'chalaridagi turar joylarga noqonuniy ravishda yondosh qurilgan qurilmalar buzib olindi.

Rekonstruksiya qilinishidan oldin Al-Xorazmiy ko'chasining ko'ndalang qirgim o'lchami ko'chaning qizil chiziqlari oralig'ida 28,0 metrni tashkil qilgan bo'lsa, yangisi 40,0 metrga kengaytirildi va ko'rish chizig'i 60,0 metrga tenglashtirildi.

Ushbu bosh reja asosida Urganch shahrini rivojlantirish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan Dastur ishlab chiqildi. Mazkur Dastur ijrosi bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib transport, muhandislik kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurish va ta'mirlash bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Urganch aeroport terminal binolari va aeroport oldi maydonida jami 77,8

mlrd. soʻmlik qurilish-montaj ishlarini bajarish rejalashtirilgan boʻlib, 2013 yilda aeroport oldi maydonida 7,1 mlrd. soʻmlik obodonchilik ishlari va Urganch aeroport terminal binolarida 31,1 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari amalga oshirildi.

Urganch xalqaro aeroportida yoʻlovchilar uchun yuksak darajada xizmat kursatadigan yangi terminal qurilib ishga tushirilgani, soʻnggi yillarda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida ushbu koʻhna va qadimiy oʻlkada zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi yaratilayotgani, ijtimoiy infratuzilma obʻektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, sayyohlarga koʻrsatilayotgan xizmatlar turini koʻpaytirib, sifatini yanada yaxshilashga yoʻnaltirilgan keng qamrovli loyihalar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Vohaning sayyohlik salohiyatini yuksaltirish, aviayoʻlovchilarga servis xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash hamda respublikadagi havo maskanlari erusti infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida barpo etilgan yangi terminal soatiga 300 nafardan ortiq yoʻlovchiga namunali xizmat koʻrsata oladi.

Yangi bino “Oʻzshaharsozlik LITI” davlat unitar korxonasi tomonidan loyihalashtirilib, "93-maxsustrest" ochiq aksiyadorlik jamiyatining mohir quruvchi va muhandislari tomonidan jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilindi. Bino dizaynini ishlab chiqishda Oʻzbekistonning zamonaviy arxitektura tendensiyasi hamda milliy meʼmorchilik sanʼati anʼanalari hisobga olindi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi PQ-91-son qarori bilan tashkil qilingan.

TATU Urganch filiali yangi binosi qurilishiga Oʻzbekiston aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish vazirligi tomonidan 17 mlrd. 700 mln. soʻm ajratilib, bosh pudratchi "MirMax" industrial MCHJ tomonidan 2013 yil noyabrda foydalanishga topshirilgan.

TATU Urganch filialining 160 o‘ringa mo‘ljallangan talabalar turar joyi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan ajratilgan 6 mlrd. 300 mln. so‘m mablag‘ hisobidan bosh pudratchi "MirMax" industrial kompaniyasi tomonidan qurilish ishlari amalga oshirildi va 2014 yil oktyabrda qurib foydalanishga topshirildi.

Yoshlarimizni jismonan sog‘lom, aqlan etuk bo‘lib etishishlari borasida Urganch shahrida qurib foydalanishga topshirilgan "Yoshlar" sport majmuasi negizida yopiq so‘zish havzasi 25x11 metr, 2 ta universal sport zallari 40x20 metr, yopiq sport maneji 113x50 metr, futbol maydoni 102x68 metr, gimnastika zali 60x30 metr, kabi yirik sport ob‘ektlari bo‘lib bir vaqtning o‘zida 17 ta sport turi bilan 500 nafardan ortiq sportchi shug‘ullanish imkoniyati mavjud.

Bulardan tashqari, Al-Xorazmiy ko‘chasida birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatishshahobchalari joylashgan 435 xonadonga mo‘ljallangan 12ta ko‘p qavatli turar-joy binolari, 26ta tadbirkor tomonidan 3 qavatli, shundan birinchi qavatida xizmat ko‘rsatishshahobchalari joylashgan 6 ta blokdan iborat turar-joy binolari, 35 o‘rinli mehmonxona, "Aloqa bank", "O‘zbek invest" sug‘urta kompaniyasi va Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali yangi binosi, 160 o‘quvchi o‘rinli yotoqxonasi binosi, yosh mutaxassislar uchun 18 xonadonli turar joy binosi qurilishi, Urganch temir yo‘l vokzali va vokzal oldi maydoni shuningdek, "Yoshlar" ko‘li hududidagi qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilib yakuniga etkazildi.

Amir Temur istiroxat bog‘i, Urganch markaziy dehqon bozori ob‘ektlarida jahon andozalariga mos ravishda qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilmokda. Shuningdek, Urganch shahrini kesib o‘tuvchi Shovot kanalining 7,3 km qismining o‘ng va so‘l qirg‘oqlarida Respublikamiz viloyatlari tomonidan zamon talablari darajasidagi viloyatlarning milliy an‘analarini o‘zida namoyon qilgan dam olish maskanlari, bolalar va sport maydonchalari hamda servis ob‘ektlari, kanal sohilida kemalar to‘xtash joylari qurilishi nihoyasiga etkazildi.

Shuningdek, viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 4 ta mehmonxonada qurilish ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Er osti suvlarini sizot suvlarini pasaytirish maqsadida Shovot kanalining o'ng va so'l qirg'oqlarida yopiqyotiq drenaj tarmoqlari yotqizildi.

"Yoshlik" massivi hududida mavjud bo'lgan eski xaroba uylar va faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish ob'ektlarini bo'zib olib, o'rniida "O'zshaharsozlik LITI" DUK tomonidan ishlab chiqilgan "Yoshlik" massivining batafsil rejalashtirish loyihasiga ko'ra, yangidan ko'p qavatli turar-joylar, sport shaharchasi, kollej, maktab, bolalar bog'chasi hamda savdo va maishiy xizmat ko'rsatishshahobchalari qurilishi rejalashtirilib, foydalanishga topshirildi.

"Yoshlik" massivi hududida 23 ta ko'p qavatli ko'pxonadonli turar-joy binolari qurilib foydalanishga topshirildi. Bulardan tashqari Urganch shahrini bosh rejasi asosida 2014 yilda 25 ta ko'p qavatli ko'p xonadonli turar-joy binolari qurilib foydalanishga topshirildi.

Urganch shahrida temir yo'l vokzalining yangi binosi jahon talablariga javob beradigan vositalar bilan jihozlandi. Urganch shahrida Xorazm viloyatdagi birinchi "Gipermarket" foydalanishga topshirildi.

Yangi Urganch ko'chasida qad rostlagan butkul yangi va zamonaviy ko'ngilochar savdo markazi "ARXDIZAYN" ma'suliyati cheklangan jamiyati loyihasi asosida uch yarim yil davomida barpo etildi. Mazkur majmuani qurilish-montaj va zaruriy asbob-uskunalarni o'rnatish ishlariga homiy tashkilot va imtiyozli bank kreditlari hisobidan jami 17 mlrd.so'm sarflandi.

Zamonaviy, betakror dizayn va ko'rinishdagi savdo majmuasi 4 qavatdan iborat bo'lib, har bir qavatidaharidor, dam oluvchilar uchun ko'pgina qulayliklar yaratilgan. Majmuaning birinchi qavatida joylashgan savdo zalida turli xil shirinliklar, qandolatchilik, sut, non, go'sht kabi o'n ikki ming turdagi oziq-ovkat mahsulotlari, xo'jalik mollari va kiyim - kechaklar aholiga qulay narxlarda savdoga qo'yilgan.

Qolaversa, deyarli barcha turdagi dori-darmonlarni topish mumkin bo'lgan katta dorixona ham mavjud. Shuningdek, boshqaqavatlarda ham bolalar va kattalar uchun ko'ngilochar uyin attraksionlari, katta va kichik "3D" va "5D" kino zallari, o'zbek, turk, uyg'ur, xorazm milliy taomlari tayyorlanadigan oshxonalar shaharaholisi va mehmonlariga xizmat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2000 yil 26 apreldagi PF-2595-son Farmoni ijrosi yuzasidan keyingi yillarda "Davarxittektqurilish" qo'mitasi tizimidagi tashkilotlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ishlovchi xodimlarning oylik maoshlarini oshirish ularning malakasini oshirish, ish sharoitlarini yaxshilash borasida tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 27 noyabrdagi 01-05/13-3-son yig'ilish bayoni topshiriqlari asosida viloyat arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi tizimidagi barcha tuman, shahar arxitektura va qurilish bo'limlari maxsus jihozlangan "Damas" rusumli xizmat avtomashinalari bilan ta'minlandi.

Arxitektura organlarida ishlab faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha Toshkent arxitektura va qurilish institutida malaka oshirish kurslari, mahorat darslari va chet ellarda malaka oshirish kurslari tashkil qilindi va rejali jadval asosida malaka oshirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi 2006 yildan boshlab "Rahbar" davlat xizmatchilarining boshqaruv sohasidagi bilimlarini rivojlantirish markazi o'quv rejasiga "Shaharsozlik asoslari va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlari" dasturi kiritildi. Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, odamlar tafakkuridagi o'zgarishlar hamda ulug'vor maqsadlar bu haqiqatni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirishda

infratuzilma tarmoqlari yuqorida keltirilgan turistik mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi umumiy shartlarining birlashgan majmuasi hisoblanadi hamda turizmni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash va istiqbollarini aniqlashga olib keladi.

2.3. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollari

Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollarini aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda №PF-4861 sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, Xorazm viloyati hokimligi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi hamda viloyatda manfaatdor idora tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirishni konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha Xorazm viloyatida kelajakdagi davrda, ya‘ni 2017-2021 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idora tashkilotlar bilan kelishish uchun Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga taqdim qilindi.

Natijada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyati Xiva tumaniga qilgan tashrifi davomidagi topshirig‘iga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati Xiva shahrining turistik salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi haqida” qarorning loyihasi tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. O‘z navbatida mazkur qarorning loyihasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan joriy yilning 2 martida Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda №PF-4861 sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishni amalga oshirish yuzasidan xorazm viloyati bo‘yicha aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. ushbu dastur quyidagi bandlardan iborat bo‘ladi (2.3.1-jadval):

Qabul qilingan dasturning tarkibi²⁵

| | |
|----|---|
| 1. | Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, bu sohani rivojlanishning kuchli omiliga aylantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish |
| 2. | Turizm faoliyati sohasiga oid qonunchilik va huquqiy normativ bazani kelgusida yanada takomillashtirish, turizm sanoati sub'ektlarining faoliyatini amalga oshirishda qulay shart sharoitlarni shakllantirish, turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan barcha to'siq va qiyinchiliklarni olib tashlash, viza va ro'yxatga olish jarayonlarini hamda bojxona va pasport nazoratini soddalashtirish, turizm sohasidagi statistika xisob tizimini takomillashtirish |
| 3. | Turistik xizmatlarni tashkillashtirish jarayonida sayyohlar va ekskursantlarning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga doir kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish |
| 4. | Ichki va tashqi turizmni jadal rivojlantirishda milliy va hududiy kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu bilan bir qatorda an'anaviy, tarixiy-madaniy turizm bilan birga diniy, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, sog'lomlashtirish, qishloq xo'jaligi, sanoat, kasbiy va turizmning boshqa yo'nalishlarini yaratish, hududlarda katta miqyosdagi mavzuviy va samarali turistik mashrutlarni yaratish, barcha turistik ob'ektlar va mashrutlarni yagona ro'yxatga olishning milliy tizimini shakllantirish |
| 5. | Turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni yanada kengaytirish, birinchi navbatda BMTning Butunjahon turistik tashkiloti va xorijiy mamlakatlardagi xalqaro va milliy turistik tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatish, xalqaro va davlatlararo standart va normalarni amaliyotda qo'llash |
| 6. | Respublikaning barcha hududlari bo'ylab turizm sanoati ob'ektlarini jadal rivojlantirish, zamonaviy xalqaro standartlar va sayyohlar talab va ehtiyojlariga javob beradigan, shuningdek miqdoriy va sifat jihatidan mehmonxonalar va boshqa joylashtirish ob'ektlari, umumiy ovqatlanish joylari, transport va logistika tizimi, joylardagi axborot markazlari, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaxshilash va rivojlantirishda chet el investitsiyalarini jalb etish |
| 7. | Xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, zamonaviy marketing omillaridan keng foydalanish, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarni yaratish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorida targ'ib etish rejalarini ishlab chiqish, mamlakatimizning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini shakllantirish |
| 8. | Turizm sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va turizm faoliyati sub'ektlari ishchi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish |

Darhaqiqat, jadvalda dastur taklif loyihasi, asosan viloyatda 2017-2021 yillarda turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha loyihalar, hududdagi yangi turistik yo'nalishlar va turizm servisini yanada takomillashtirish, shuningdek

²⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasining ma'lumotlariga asoslanib, tuzib chiqildi.

hududning turistik potensialidan keng foydalanish, turizm ob'ektlari holatini yaxshilash, turizm sohasidagi mavjud kadrlar malakasini oshirish va yangi kadrlar tayyorlash, turizm sohasini moliyalashtirish manbalarini ko'rsatib dasturni amalga oshirishni ta'minlash vazifalari kiritildi.

Shular bilan birgalikda, Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishning kelajakdagi yo'nalishlari va imkoniyatlari Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi tomonidan rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishga bog'liq. Jumladan, viloyatda ichki turizmni rivojlantirishda hamda Xiva va "Ichan-Qal'a" muzey qo'riqxonasini xalqaro turizm markazlaridan biriga aylantirish maqsadida Buxoro-Xiva yo'nalishida zamonaviy tezyurar poezd qatnovini yo'lga qo'yish loyihasi rejalashtirilgan.

Shuningdek, mavjud turistik yo'nalishdagi yo'llar holatini yaxshilash, hududdagi 49 ta madaniy meros ob'etlarida ta'mirlash va tiklash ishlarini olib borish, diniy turizmni keng targ'ib qilish va yangi ekoturizm yo'nalishlarida loyihalar barpo qilish ko'zda tutilgan. Ayniqsa, qaror va dastur loyihasi respublikadagi manfaatdor vazirliklar va idora tashkilotlar tomonidan kelishilgandan, keyin Dasturda ko'rsatilgan bandlar o'z vaqtida bajarilishi belgilab olindi.

O'z navbatida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi hamda Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan Evropa davlatlari, Osiyo, Yaqin Sharq va MDH davlatlari milliy madaniyati va urf-odatini hisobga olgan holda Xiva to'g'risida ularga mos reklama roliklarini tayyorlash va jahon ommaviy axborot vositalarida keng yoritish belgilandi, bunda MDH davlatlari, shu jumladan Rossiyadan turistlar oqimini ko'paytirish hamda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida yangi videoroliklar tayyorlandi. Xozirgi kunda mazkur reklama roliklarini chet tillariga tarjima qilish va internet saytlariga joylashtirish ishlari muhokama qilinmoqda.

Ayniqsa, turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi "Dunyo bo'ylab" telekanali bilan hamkorlikda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turistik salohiyati to'g'risidagi reklama roliklarini tayyorlash, viloyatimizning turistik salohiyatini yanada ochib berish va uni keng targ'ib qilish

maqsadida, joriy yilning 24-27 mart kunlari “Dunyo bo‘ylab” telekanalining “Xush kelibsiz” ko‘rsatuvi ijodkorlari viloyatga tashrif buyurdilar. Telekanal ijodkorlari tashrifi davomida “Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi, “Old Xiva” va “Qibla tozabog‘” mehmonxonalarida tasvirga olish ishlarini olib bordilar. Hamda viloyatning turistik ahamiyatga molik ob’ektlari “Euronews” telekanali orqali targ‘ib qilinmoqda.

Shuningdek, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi hamda viloyat Arxitektura va qurilish boshqarmasi tomonidan Xiva tumanida turistlar uchun xizmat qilishga ixtisoslashgan do‘kon, restoran va kafelar joylashtirilgan 4 ta ko‘chani barpo etish bo‘yicha jaxon arxitektura andozalaridan kelib chiqqan holda mazkur ob’ektlarning joylashtirish uchun taklif loyihalari tayyorlash ishlari boshlandi.

Hamda, turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bo‘yicha tayyorlangan ma’lumotlar hududiy boshqarmaning 2017 yil 20 fevraldagi 22-sonli xati bilan taklif sifatida viloyat arxitektura va qurilish boshqarmasiga taqdim qilindi. Ushbu loyiha Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turistik salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi haqida”gi qarori loyihasi doirasida amalga oshirish ham belgilangan.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Osiyo taraqqiyot banki bilan rejalashtirilgan loyihalar qatoriga Xiva tumanining infratuzilmasini rivojlantirish va Hazorasp tumanidagi “Hazorasp qal’a” majmuasida sayyohlik maskanini tashkil etish bo‘yicha 20 mln. AQSH dollarga teng miqdoridagi loyiha kiritildi.

Shular bilan birga, Xiva shahrida Evropa mamlakatlaridan turistlarni jalb qilish hamda turistlar uchun “Xiva sopoli” mas’uliyati cheklangan jamiyati negizida suvenir mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish maqsadida mazkur jamiyatga joyiga chiqib o‘rganildi. O‘rganish natijasida loyihani to‘liq amalga oshirish bo‘yicha tijorat bankidan kredit ajratish, zamonaviy dastgohlar olib

kelishi, jamiyati binosida ta'mirlash ishlarini olib borish, injenerlik kommunikatsiya tizimlarida shuningdek, keramika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyolarni Sulton Uvays Bobo tog'i atrofidan olishda muammolar borligi aniqlandi va "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati Xiva shahrining turistik salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi haqida" Dasturiga kiritish bo'yicha taklif loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

O'z navbatida "Xiva sopoli" MCHJ tomonidan yuqoridagi masalalar bo'yicha 2017 yil 18-fevralda 4-son xat bilan Xiva tuman hokimligiga murojaat qilingan. Bugungi kunda "Xiva sopoli" MCHJ vakillari suvenir mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarish dastgohlarini xarid qilish maqsadida Turkiya Respublikasiga tashrif buyurdilar. Mazkur dastgohlarning narxi Xitoy Respublikasida arzonligi sababli Turkiya Respublikasidan xarid qilinmadi. Jamiyat vakillari dastgohlarni xarid qilish uchun shartnoma tuzish maqsadida Xitoyga borishni rejalashtirishdi. Suvenir mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarish dastgohlarining mablag'lari aniqlangandan keyin jamiyat tomonidan keredit olish maqsadida tijorat bankiga murojaat qilish belgilangan.

Shuningdek, keramika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur hom ashyo ajratish masalasini hal etish maqsadida Xiva tumani hokimligi va jamiyat rahbariyati bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani hokimligi o'rtasida uchrashuv o'tkazish rejalashtirilgan. Xorazm viloyati hokimligining 2017 yil 1 apreldagi 7-1043-sonli xatiga asosan, keramika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kerakli xom ashyo ajratish masalasini hal etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga murojaat qilingan.

2017 yilning fevral oyida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi va Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi hamkorligida viloyatdagi mehmonxonalarining faoliyatiga doir tanqidiy ko'rsatuv tayyorlandi.

2017 yilning 24 mart kuni viloyat hokimligida Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda viloyatdagi mehmonxonalarda uchrayotgan kamchiliklar e'tiborga olingan holda tegishli tashkilotlar bilan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish kelishilib olindi.

Dasturning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 8 iyundagi "Joylarda turizm sohasini rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini yanada oshishini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi 30-sonli bayoni 13-ilovasi "Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish borasida 2016-2017 yillarga mo'ljallangan aniq amaliy chora-tadbirlar rejasi"ning ijrosi bo'yicha dasturga asosan 57,2 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari jalb qilish hisobiga 81 ta loyihani amalga oshirilishi belgilangan. Bu 2016 yil yakuni bilan 1864,5 mln. so'mlik 16 ta loyiha to'liq bajarilib, 65 ta loyihada ishlari davom etmoqda.

Shuningdek, "Joylarda turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini oshishini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar to'g'risida" gi 30-sonli bayonining ijrosini bo'yicha Xorazm viloyatining sayyohlik salohiyati va turistik dasturlarini ochib beruvchi taqdimotlarni tayyorlagan holda chet el davlatlarida o'tkaziladigan turistik va boshqa tadbirlarda ishtirok etib taqdimotlar o'tkazib borish yuzasidan joriy yilning mart oyida Berlin va Moskva shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro turistik ko'rgazmasida "Bek tur" MCHJ ishtirok etdi.

2017 yilning 5-16 may kunlari "Zuxro travel" MCHJ vakilini Avstriya, Vengriya, Chexiya va Polsha davlatlariga xizmat safariga borishi tashkil qilinib, ushbu davlatlarda xorijiy sayyohlik tashkilotlari vakillari ishtirokida Xorazm viloyatining turizm salohiyatiga bag'ishlangan taqdimotlar o'tkazildi.

Viloyatning sayyohlik salohiyati bilan tanishtirish uchun chet el davlatlarining respublikamizdagi elchilari va elchixonalarining mas'ul diplomatlari uchun Xorazm viloyatiga tashriflar tashkillashtirish maqsadida joriy yil fevral oyida "Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi bosh kotibi va Koreya Respublikasi Milliy saylov komissiya raisi Kim Yong Xi boshchiligida Koreya Respublikasi delegatsiyasi hamda mart oyida Evro Parlament vakillari Xorazm viloyatiga tashrif buyurdilar.

SHuningdek, joriy yilning 14 may kuni Tashqi ishlar vazirligi diplomatik vakolatxonalariga xizmat ko'rsatish boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan XIV Madaniy an'analar va taomlar festivalida Xorazm viloyatining turizm salohiyatini namoyon etuvchi ko'rgazmali stand va taqdimot materiallari to'plami (milliy

hunarmandchilik mahsulotlari hamda viloyatimizning boy madaniy merosini ifodalovchi konsert dasturlari bilan ishtirok etildi. 15-17 iyul kunlari o'tkazilgan "Raqs sehri" xalqaro festivalida Toshkent shahridagi xorijiy davlatlar elchixonalari vakillari ishtirok etishdi.

Xorijiy sayyohlik tashkilotlari va sohaviy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun info-turlarni tashkillashtirish yuzasidan joriy yilning 15-17 aprel kunlari viloyatimizga Rossiya ommaviy axborot vositalari vakillari uchun info-turlar tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

30 may kuni Singapur Respublikasida chop qilinadigan "Lianhe Zaobao" va "Berita Harian" hamda Rossiya Federatsiyasida chop qilinadigan "Industriya turizma i kulturo" va "Tour Press Club" jurnallari, "Strela" va "Delovoy Peterburg" gazetalari vakillari uchun Xorazm viloyatiga info-tur tashkil qilindi. Joriy yilning 13-14 iyun kunlari "Marakanda Expedition" sayyohlik tashkiloti bilan hamkorlikda Malayziya, Italiya va Nepal davlatlari sayyohlik tashkilotlarining 7 nafar vakillari uchun Xorazm viloyatida info-tur tashkil etildi.

Shuningdek, 2016 yil 28-29 sentyabr kunlari "Euronews" telekompaniyasi vakillari Xorazm viloyatiga tashrif buyurish va "Ichan-Qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi hududida Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri tomonidan tashkil qilingan tomoshalar tasvirga olindi.

6 oktyabr kuni Rossiyaning NTV telekanali xodimlari tashrif buyurishdi. Tashrif davomida mehmonlar "Ichan-Qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi hududidagi "Juma masjidi", "Muhammad Raximxon Feruz madrasasi" va "Pahlavon Maxmud maqbarasi" tarxii yodgorliklarida hamda buyuk olim Muhammad Muso Al-Xorazmiy yodgorligida tasvirga olish ishlari olib borildi. Shu bilan birga, "Ko'hna ark" majmuasida viloyat akademik va xalq badiiy jamoasi konsert dasturi hamda kulolchilik ustaxonasidagi ish jarayonlari tasvirga olindi. Mehmonlarni viloyatimiz ekoturizm salohiyati bilan tanishtirish maqsadida Xiva tumanidagi "Xarrot" sayyohlik majmuasiga olib borildi hamda ular Xorazm baliq taomlari tayyorlanishi jarayoni bilan tanishtirildi.

Shuningdek, "NTV" telekanali tasvirga olish guruhi "Ichan-Qal'a" davlat

muzei qo'riqxonasi hududidagi "Xeyvak" mehmonxonasi restoranida milliy taomlarimiz "shivit oshi", "tuxum barak" va "kadi barak" larni tayyorlanishi yuzasidan tasvirga olish ishlari olib borishdi.

Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Xalqaro o'zbek sayyohlik ko'rgazmasi hamda Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasida Xorazm viloyati stendi va taqdimotini har yili tayyorlab, samarali ishtirokini ta'minlash maqsadida joriy yilning 18-19 aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Dam olish dunyosi" nomli o'zbek xalqaro turistik ko'rgazmasida "Ichan-Qal'a" davlat muzei-qo'riqxonasi, 10 ta sayyohlik tashkiloti, Xiva tumani hokimligi madaniyat va sport ishlari bo'limi qoshidagi "Sayqal folklor xalq ansambli", Xorazm viloyati "Hunarmand" boshqarmasi hamda 3 ta restoranlar vakillaridan iborat jami 27 ta soha hodimlari viloyat turizm salohiyatini namoyish etuvchi ko'rgazma stendi bilan ishtirok etdilar.

2016 yilning 5-7 oktyabr kuni Toshkent shahrida 22-Toshkent Xalqaro turistik ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Mazkur xalqaro ko'rgazmada Xorazm viloyati sayyohlik tashkilotlarini munosib ishtirokini ta'minlash maqsadida, viloyat turizm salohiyatini namoyish etuvchi ko'rgazma stendi, sayyohlik xaritalari, reklama bukletlari va videoroliklar tayyorlandi.

Shuningdek, ko'rgazmada "Ichan-Qal'a" davlat muzei-qo'riqxonasi ilmiy-xodimlari va muzei eksponatlari, 22 ta sayyohlik tashkiloti, Xiva tumani hokimligi madaniyat va sport ishlari bo'limi qoshidagi "Sayqal" folklor xalq ansambli, Xorazm viloyati "Hunarmand" boshqarmasi vakillaridan iborat jami 32 ta soha xodimlari ishtirok etdilar.

Ko'rgazma davomida viloyatimiz mehmonxonalari va sayyohlik tashkilotlari respublikamizda hamda xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan sayyohlik tashkilotlari bilan jami 600 tadan ziyod shartnoma imzoladilar. Ko'rgazma yopilishining taqdirlash marosimida ilgari "O'zbekturizm" MK Xorazm viloyati mintaqaviy bo'limi "Milliy pavilonda mavzu bo'yicha eng yaxshi bo'lim" nominatsiyasi diplomi bilan taqdirlandi.

Sayyohlik salohiyatini ochib beruvchi bosma va elektron targ'ibot materiallarini ishlab chiqish va sayyohlar e'tiboriga havola etish choralarini ko'rish uchun Xorazm

viloyatining sayyohlik salohiyatini namoyon qiluvchi taqdimot materiallari va videorolik www.slideshare.net va www.youtube.com veb sahifalariga joylashtirildi. Viloyatimizning sayyohlik salohiyati haqidagi videoroliklar, sayyohlik xaritalari va reklama bukletlari respublikamizning xorijiy davlatlardagi elchixonalarida foydalanilishi uchun tashqi ishlar vazirligiga taqdim qilib borilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev “2017–2021 yillarda Xiva shahri va Xorazm viloyati sayyohlik salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Dasturda sayyohlarni muntazam qabul qilish uchun zamonaviy talablar va qo‘shimcha qulay sharoitlarni hisobga olgan holda Xiva shahri hamda Xorazm viloyati turizm infratuzilmalarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Jumladan, respublikaning asosiy sayyohlik markazlarini (Toshkent—Samarqand-Buxoro-Xiva) bog‘lovchi temir yo‘l tarmog‘ini qurish, Evropa, Osiyo va MDH mamlakatlaridan charter reyslarini tashkil etish va muntazam aviareyslar sonini oshirish, Urganch-Xiva yo‘nalishida qulay sayyohlik avtobuslari qatnovini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Sayyohlar oqimini oshirish hamda ularning hududda ko‘proq vaqt bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi sayyohlik yo‘nalishlari va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini takomillashtirish, bunda Amudaryo daryosi qirg‘oqbo‘yi hududida yangi ekzotik turizm turlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Turistlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha infratuzilmalarga yondosh ob‘ektlar holatini yaxshilash va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash belgilangan. Ichki turizmni rivojlantirish uchun Samarqand-Urganch, Buxoro-Urganch va Farg‘ona-Urganch ichki aviareyslarini ochish masalalarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Dasturni amalga oshirish natijasida 2017-2021 yillarda sayyohlik xizmatlar eksporti hajmini 2,3 barobarga yoki 131,4 million dollargacha, sayyohlar soni esa 2,1 barobarga yoki 129,7 ming kishiga oshirish rejalashtirilgan.

Mutasaddi vazirlik, muassasalar hamda joylardagi mahalliy hokimlik organlariga “Ichan qal’a” majmuasi ichi va atrofida kompleks ravishda restavratsiyatlash ishlarini amalga oshirishni ko‘zda tutgan Xivani batafsil loyihalashtirish rejasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Butunjahon Sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra mazkur soha daromadi yiliga 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Keyingi yillarda davlat tuzilmalarining turizmga nisbatan munosabati keskin o'zgarib bormoqda. Ular turizmga milliy iqtisodiyotning inqirozdan chiqishi, bozor hududini shakllantirish, davlat byudjetiga katta mablag'lar tushishining amaliy usuli, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, dam olish vaqtini mazmunli o'tkazish shakli va xalqni mamlakatning tarixiy-madaniy qadriyatlariga jalb qilish usulini ko'rmoqdalar. Xorijiy mutaxassislar respublikamizning uning nodir tabiiy resurslari va tarixiy-madaniy merosi tufayli turistik jihatdan istiqboli porloq mamlakatlar jumlasiga kiritadilar.

Shu boisdan ham, turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohasini mujassam etganki, bu iqtisodiyot tarmoqlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Chunki, turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab-quvvatlanib turiladi.

Xorazm viloyatida turizm hamda turistik xizmatlarning tobora rivojlanib borishi natijasida so'nggi yillarda uning noan'anaviy turlari - ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda mazkur yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, bugun ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'layotgan va turizmning eng istiqbolli turlaridan biri ekoturizm jadal rivojlanmoqda.

Shuningdek, turizm yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va mamlakatimiz byudjetiga salmoqli daromad keltiradi. Hamda ushbu sohada ko'pchilik turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq jismoniy va yuridik shaxslarga yordam ko'rsatadi. Turizm faqat eng yirik va iqtisodiyotning eng dinamik holatda rivojlanayotgan sektorlaridan biridir. Uning tez sur'atlarda o'sishi bilan yuz yillikning iqtisodiy

fenomeni sifatida tan olingan.

Darhaqiqat, viloyatda turistik xizmatlarga o'sib borayotgan talab, eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi. Bularning jumlasiga transport taraqqiyotidagi o'sish va uning arzonlashishi, valyuta cheklovlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi va viza rejimining liberallashtirilishi kabilarni kiritish mumkin.

Bu borada Prezidentimizning "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori vohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan dastur bo'yicha viloyatda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Sayyohlikni jahon talablari darajasiga to'liq olib chiqilishini ta'minlay oladigan mazkur chora-tadbirlar xalqaro turizm bozorida mamlakat salohiyatini namoyish etishdan tortib, malakali mutaxassislar tayyorlashgacha bo'lgan keng ko'lamli vazifalarni qamrab olgan.

Ana shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati turizm sohasini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini yoritishda turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslariga to'xtalib o'tish joiz. Ishda ushbu jihatlarni o'rganish turizm tushunchasi va uning mohiyati, turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari hamda turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o'rnini ochib berish kabilari orqali amalga oshirildi.

Shuningdek, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishning yo'nalishlari va xususiyatlari o'z navbatida Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili, turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o'rnini hamda turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari ajratilib tadqiq qilindi.

Biroq, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili turizm bilan bog'liq o'zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini ko'rsatadi. Shu boisdan ham, bugungi kunda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda. Buni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining bir qancha farmon va qarorlari, viloyatlarda

esa uning ijrosini ta'minlashga bag'ishlangan qarorlari qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini o'rta muddatli istiqbolda rivojlantirishni konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha Xorazm viloyatining 2017-2021 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, ushbu dasturning tarkibi va maqsadi manfaatdor vazirlik va idora tashkilotlar bilan kelishish uchun Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga taqdim qilindi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlari ham alohida o'rinni egallaydi hamda bu turistik mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi umumiy shartlarining birlashgan majmuasi hisoblanadi. Natijada, ushbu o'zgarishlar mintaqada turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash va istiqbollari aniqlashga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishni takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlardagi takliflarni amaliyotga joriy qilish lozim:

- viloyatdagi turistik ob'ektlarni aniqlash, ulardan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- turizm infratuzilmasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ijobiy ta'sirini izlab topish;
- turistik tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni uyg'unlashtirib borish va yanada yaxshilash;
- turistik biznesni barqaror rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2013 yil 20 martdagi PQ-1940-sonli “Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturini amalga oshirish” to‘g‘risidagi Qarori.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. - T.: O‘zbekiston, 1996. - 285 b.
3. Karimov I.A. Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish taraqqiyot omili. – T. : O‘zbekiston, 2004. – 4 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xals so‘zi, 2015 yil 17 yanvar.
5. Боголюбов В.С и др. Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: Академия, 2005. - 153 б.
6. Буторова Н. В. Менеджмент и маркетинг иностранного туризма. - М: Советский спорт, 1999. - 43 с.
7. Дурович А.П. Маркетинг в туризме. Учебное пособие 3-е изд., стереотип (ГРИФ) – М., 2004.
8. Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 48 б.
9. Лапицкая Л.В., Стрелец Е.В. Маркетинговые исследования тенденций развития регионального туристического рынка. Выпуск 17. Проблемы региональной экономики.
10. Professorlar M.Q.Pardayev va H.N.Musayevlar tahriri ostida. Mualliflar jamoasi. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. - T.: 2008. – 47 b.
11. Саидова Г.К. Узбекистан входит в ТОП-5 стран мира, демонстрирующих высокие темпы экономического роста. Интернет-журнал. URL: http://economics.uzreport.uz/news_r_104348.html
12. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S.. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2010. – 17-44 b.

13. Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O'quv-uslubiy majmua. - Samarqand, SamISI, 2013 yil. - 372 b.
14. Qudratov G'.H., Pardayev M.Q., Ataboyev R. O'zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. // Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. -T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 61-70 b.
15. Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. – Samarqand, 2011.
16. Matyakubov U.R. “Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2011. – 12 b.
17. Holiqulov A.N. “Mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand mehmonxonalari misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Avtoreferat. - Samarqand, 2010. - 25 b.
18. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2016.
19. UNWTO Tourism Highlights, 2015 Edition. 17 pages. / www.tourlib.net/wto/WTO_highlights_2015.pdf.
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.
21. Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari
22. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasining ma'lumotlari.
23. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Loyiha. – Toshkent, 2014. - 118 bet.
24. www.lex.uz
25. www.world-tourism.org
26. www.wttc.org
27. www.uzbektourism.uz
28. www.tour.uz/
29. www.tours.ru/country/uz/